HISTOMAP

JALOL BOLTAYEV
(97) 299-00-66

7

JAHON TARIXI





OPTIMAL QO‘LLANMA



TARIX VA GEOGRAFIYA FANLARIDAN KAFOLATLANGAN O‘QUV KURSI! BU QANDAY?

«O‘qishga kirish uchun yillab tayyorgarlik ko‘rish, bir yil o‘qishdan yiqilish, vunderkind bo‘lish shart emas! Kafolatlangan (hujjat bilan) va aniq maqsadlarga yo‘naltirilib ishlab chiqilgan o‘qituvchi metodi va o‘sha metodga javob berish yetarli!»

— Abituriyentga mas’ul shaxs (ota-ona) bilan mas’ul repetitor Jalol Boltayev o‘rtasida SHARTNOMA (NATIJA KAFOLATI TO‘G‘RISIDA) tuziladi. Shartnomaga muvofiq abituriyentlarning natijalari (o‘qishga kirishi) kafolatlanadi. Agarda abituriyent OTMga kira olmasa, shartnomaga muvofiq kurs to‘lovi qaytarib beriladi.

KURS DASTURI HAQIDA QISQACHA:

✓ Har bir abituriyentning darsliklar kesimida o‘zlashtirish darajasi Jalol Boltayev ishlab chiqqan dastur bo‘yicha 100 % lik hisobda aniqlab boriladi va abituriyent natijalari haqida unga mas’ul shaxsga oyma-oy hisobot beriladi.

✓ Kurs dasturi/metodi qisqa muddat ichida maksimal natijaga erishishga mo‘ljallangan.

✓ Kurs dasturi/metodi haqida batafsil ma’lumot: https://telegra.ph/TARIX-GEOGRAFIYA-HUQUQ-FANLARIDAN-KAFOLATLANGAN-OQUV-KURSI-BU-QANDAY-08-24

O‘quv kurslarimizga marhamat!

- Repetitorlar: **Jalol Boltayev**
- Telefon: **(97) 299-00-66**
- Manzil: **Xorazm v. Urganch sh., «ARASTU» o‘quv markazi**
- Mo‘ljal: **UrDU ro‘parasi, «Adidas» do‘koni yoni**



«HISTOMAP» (qo‘llanma bo‘yicha)

ZAMONDOSHLAR		
ASR	**HUKMDORLAR**	**BOSHQA SOHA VAKILLARI**
IV	Chandragupta I, Feodosiy	
V	Romul Avgustul, Odoakr, Egidiy, Xlodvig	
VI	Xilperik, Amvrosiy Avrelian, Yustin, Yustinian I, Xisrav I	Feodora, Velisariy, Muhammad (s.a.v.)*, Abu Tolib, Omina, Abdulloh, Abdulmutalib, Abu Tolib
VII	Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Muoviya I, Li Yuan, Asparux	Syuan Szyan, Eyngard
VIII	Karl Martel, Buyuk Karl, Sulaymon, Umar ibn Abdulaziz, Marvon II, Abul Abbos Saffoh, Mansur, Xorun ar-Rashid	Lev III*, Eyngard,* Alkuin,* Abu Muslim, Muqanna, Toriq ibn Said, Roland,
IX	Buyuk Karl, Buyuk Alfred, Ryurik, Sineus, Truvor, Oleg, Simeon, Xorun ar-Rashid, Amin, Ma’mun, Muta’zid	Eyngard,* Alkuin,*, Bobak, Ziryab, Lev III*,
X	Genrix I, Otton I, Vatslav, Meshko I, Van Gon, Olga, Igor, Svyatoslav, Vladimir	Ioann XII, Silvestr III,
XI	Otton III, Garold, Vilgelm I, Aleksey I, Roman IV Diogen, Saljuqbek, To‘g‘rulbek, Alp Arslon, Yaroslav Donishmand, Svyatopolk, Vladimir Monomax, Mu’tazid, Abu Bakr (Mali)	Silvestr III, Urban II,
XII	Lyudovik VI, Genrix II, Richard I Sheryurak, Ioann Yersiz, Fridrix I Barbarossa, Yuriy Dolgorukiy, Vsevolod Mstislavich, Minamoto, Salohiddin Ayubiy, sulton Sanjar, To‘g‘rul	Innokentiy III, Rober de Sarbon*,
XIII	Filipp II, Lyudovik IX, Filipp IV, Ioann Yersiz, Fridrix II shtaufen, Rudolf Gabsburg, Yaroslav, Aleksandr Nevskiy, Chingizxon, Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy, Tuli, Botuxon, Berkaxon, Munke, Xuloku, Xubilay, Qutbiddin Oyboq, Alouddin Xiljiy, Eltutmish, Nosir, Usmon I, Mixail VIII Paleolog	Innokentiy III, Grigoriy IX, Bonifatsiy VIII, Rojer Bekon, Morko Polo, Subutoy Bahodir
XIV	Filipp IV, Ioann Saxiy, Karl V Dono, Eduard III, Richard II, Ivan Kalita, Dmitriy Ivanovich, O‘zbekxon, Jonibek, Tug‘luq Temur, Kebek, To‘xtamish, Muso I, Sundiata Keyt, Almi Muhammad Tug‘luq, Feruzshoh Tug‘luq, Alouddin Xiljiy, O‘rxon, Li Songe, Boyazid Yildirim, Amir Temur	Bonifatsiy VIII, Gilom Kal, Dyugeklan, Uot Tayler, Jon Bol, Franchesko Petrarka, shahzoda Eduard, Mamay
XV	Karl VI, Karl VII, Lyudovik XI, Karl VIII, Genrix VII Tyudor, Chju Yuan-Chjan, Ivan III, Mehmet II, Sechjon Buyuk, Bahlul Lo‘diy	Iogann Guttenberg, Janna d’Ark, Anna, Chjan Xe
XVI	Ibrohim Lo‘diy	

“Histomap” va qo‘llanmaga o‘rta asrlarda hukmronlik qilgan Arab xalifaligi, Fransiya, Angliya, Germaniya, rus, mo‘g‘ul, Vizantiya, Turkiya, saljuqiy, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Afrikadagi va Bolqondagi davlatlar hukmdorlari kiritilgan.

>ARAB XALIFALARI

>CHORYORLAR DAVRI

>ABU BAKR – dastlabki to‘rt xalifadan birinchisi (632–634). Uning boshqaruvi davrida Arabiston yarimoroli aholisi islomni to‘liq qabul qilgan.

>UMAR – dastlabki to‘rt xalifadan ikkinchisi (634–644). U o‘zining 1) saxiyligi, adolatparvarligi va din masalalarida qat’iyligi bilan shuhrat qozongan. Uning davrida arablar 2) [1]*Falastin,* [2]*Suriya,* [3]*Misr va* [4]*Liviyani,* [5]*Eronning katta qismini* istilo qilganlar.

>USMON – dastlabki to‘rt xalifadan uchinchisi (644–656). Uning davrida:
1) [1]Eron to‘liq bosib olingan;
2) Arab qo‘shinlari [2]Dog‘istonni egallab, Amudaryo sohillariga chiqqan;
3) Qur’on oyatlari to‘planib yagona kitob holiga keltirilgan (Toshkentda saqlanadi*);
4) arablar jangsiz [3]Marv (Xuroson) shahrini egallashgan (651);
5) Movarounnahrga (Maymurg‘ shahriga) ilk bor hujum qilingan (654).

>ALI – dastlabki to‘rt xalifadan oxirgisi (656–661). Uning hukmronligi o‘z raqiblari bilan to‘xtovsiz urushlarda o‘tgan. Undan so‘ng xalifalik taxtiga umaviylar sulolasining birinchi vakili **Muoviya I** chiqqan.

>UMMAVIYLAR SULOLASI

>MUOVIYA I – umaviylar sulolasidan bo‘lgan *birinchi* arab xalifasi (661-680). Narshaxiy yozishicha, uning farmoni bilan 673-yilning kuzida **Ubaydulloh ibn Ziyod** Amudaryodan kechib o‘tib, *Buxoro* hududiga bostirib kiradi. *Poykand* va *Romitonni* egallab, Buxoro hukmdori qo‘shinlarini yengadi va o‘z foydasiga sulh tuzib, bir lak (yuz ming) dirham hajmida tovon undiradi.
Tovondan tashqari arablar to‘rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat ko‘p o‘ljalar bilan Marvga qaytadilar. Yo‘l-yo‘lakay arablar Termiz shahrini egallaydilar. Bu haqda Narshaxiy yozib qoldirgan.

>SULAYMON – umaviylar sulolasidan bo‘lgan arab xalifasi (VIII asr). Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim unga qarshi isyon ko‘targanligi uchun Farg‘onada arab askarlari tomonidan o‘ldirilgan.

>UMAR IBN ABDULAZIZ – umaviylar sulolasidan bo‘lgan arab xalifasi (717–719). U murakkab vaziyatni hisobga olib, bo‘ysundirilgan yerli xalqlar bilan ***kelishish siyosatini*** amalga oshirishga majbur bo‘ldi. U yangi yerlarni bundan buyon ***zabt etishni to‘xtatish*** hamda ***moliyaviy islohot*** o‘tkazish to‘g‘risida farmon berdi. Bunga binoan musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan mahalliy xalqlardan ***xiroj va jizya soliqlarini olish bekor qilindi***. Biroq Movarounnahr zodagonlarining ko‘pchiligi o‘zini haqiqiy musulmon deb hisoblab, soliq to‘lamay qo‘yadi. So‘ngra xalifalik ma’muriyati bir yo‘la hammadan jizya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan arab ma’muriyati o‘rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda bosqinchilarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari ko‘tariladi.

>MARVON II – umaviylar sulolasining oxirgi xalifasi (744–750). Uning davrida umaviylarga qarshi norozilik nihoyatda kuchaygan. Bunga xiroj solig‘i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi sabab bo‘lgan. Abu Muslim qo‘zg‘oloni (747–749) natijasida taxtdan ag‘darilgan.

U xalifalik taxtiga chiqqanida Xuroson noibi Nasr ibn Sayyor (738–748) bo‘lgan.

>ABBOSIYLAR SULOLASI

>ABUL ABBOS SAFFOH – abbosiylar sulolasidan bo‘lgan *birinchi* arab xalifasi (750–754).

>MANSUR – abbosiylardan bo‘lgan xalifa (VIII asr). «Oq kiyimlilar» qo‘zg‘oloniga zarba berish uchun 775-yilda katta harbiy kuchni Movarounnahrga safarbar qilgan.

>XORUN AR-RASHID – abbosiylardan bo‘lgan xalifa (786-809). Uning xalifaligi davrida abbosiylarga qarshi Rofe ibn Lays qo‘zg‘oloni (806) bo‘lib o‘tgan.

U franklar hukmdori Buyuk Karlga Quddusdagi Iso payg‘ambar qabri joylashgan yerni taqdim etganligi manbalarda qayd etilgan.

Vafotidan so‘ng o‘g‘li Amin xalifalik taxtiga chiqqan.

>AMIN – abbosiylardan bo‘lgan xalifa (809-813), Xorun ar-Rashidning o‘g‘li. Akasi Ma’mun tomonidan taxtdan tushirilgan.

>MA’MUN – abbosiylardan bo‘lgan xalifa (813–833), ungacha Xuroson noibi. Xorun ar-Rashidning o‘g‘li. Ukasi Amindan so‘ng xalifalik taxtiga o‘tirgan.

Ma’mun Xurosonda noiblik qilayotgan davrda arab lashkarboshchisi Rofe ibn Lays boshchiligida abbosiylarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilgan (806). Ma’mun Somonxudotning nabiralari Nuh, Ahmad va Yahyo yordamida isyonni bostirgan.

Unga taxtni egallashda Hirot zodagoni Tohir ibn Husayn va somoniylar yordam berishgan. Buning evaziga Tohirni 821-yilda Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlagan. Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg‘ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga esa Hirotni bergan. Uning davrida Xuroson va Movarounnahrda Tohir va uning o‘g‘illari Talxa, Abul Abbos Abdulloh (830–844) lar noiblik qilishgan. Ma’mun zamonida Xuroson va Movarounnahrda bir asrdan oshiqroq hukm surgan xalifalik hukmronligining tugagan.

Ma’mun xalifalik taxtiga chiqqanidan ko‘p o‘tmay, 815-yilda Ozarbayjonda abbosiylarga qarshi Bobek boshchiligidagi «qizil ko‘ylakliklar» deb nom olgan qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. Bu qo‘zg‘olon 20 yildan ziyod davom etgan.

>MU’TAZID – abbosiylardan bo‘lgan xalifa (892–902). Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishini istamagan Mu’tazid safforiylar bilan somoniylarni to‘qnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o‘z ta’sirini qayta tiklashga harakat qilib ko‘rgan. U Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi. Natijada 900-yilda ular o‘rtasida urush boshlanadi. Urush Ismoilning g‘alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo‘l ostiga o‘tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig‘ini yuborishga majbur bo‘ladi.

>NOSIR – abbosiylardan bo‘lgan xalifa (XIII asr). Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuborgan 20 minglik qo‘shini Basra yaqinidagi jangda tor-mor keltirilgan.

>FRANSIYA HUKMDORLARI

Hukmdorlar	Asr	Zamondoshlar tarixiy shaxslar (yozib chiqing)
Xlodvig	V	
Xilperik	VI	
Karl Martel	VIII	
Buyuk Karl		
	IX	
Lyudovik VI	XII	Rober de Sarbon
Filipp II	XIII	Ioann Yersiz,
Lyudovik IX		
Filipp IV	XIV	Filipp, Eduard III, shahzoda Eduard, Gilom Kal Dyugeklan,
Ioann Saxiy		
Karl V Dono		
Karl VI	XV	Amir Temur,
Karl VII		
Lyudovik XI		
Karl VIII		Janna d’Ark, Anna

>XLODVIG – Franklar davlati asoschisi (486-?). Merovinglar qabilasi sardori bo‘lgan. 486-yilda Shimoliy Galliyada Franklar davlatiga asos solgan.

>XILPERIK – Franklar davlati qiroli (VI asr).* Uning davrida yangi qonun chiqarilib, o‘g‘il voris bo‘lmasa, yerni avvalgidek jamoaga emas, marhumning qizi, singlisi yoki ukasiga o‘tish huquqi belgilanadi.

>KARL MARTEL – Franklar davlati hukmdori. Puate jangida 732-yilda umaviylar qo‘shinini yengib, xalifalikning Yevropaga yurishlariga chek qo‘ygan.

>BUYUK KARL – Franklar hukmdori, imperiya asoschisi (qirol maqomida: 768-814-yillar; imperator maqomida: 800-814-yillar), karolinglar sulolasi asoschisi.

Buyuk Karl Franklar davlatini 46 yil davomida boshqargan. «Buyuk» nomi unga tarixchilar tomonidan ko‘plab harbiy yurishlarga boshchilik qilib, yirik saltanat tuzgani, bu davlatda yangi qonunlar, maorif va madaniyatga asos solgani uchun berilgan. Uning ismidan «korol», ya’ni qirol unvoni kelib chiqqan.

Karl germanlarning Langobard qabilasi Italiyada tuzgan davlatga qarshi 773-yilda urush boshlaydi. Urushda g‘olib bo‘lgan Karl Italiya yerlarini grafliklarga bo‘lib, Frank qirolligiga qo‘shib oladi.

Arab xalifaligi istilo qilgan Ispaniyaga qarshi 778-yilda Karlning yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Karlning jiyani graf Roland bu urushda halok bo‘ladi.

Keyingi yurishlar davomida Pireneya yarimorolining arablardan tortib olingan hududlarida Ispan markasi franklar davlatining chegara viloyatiga aylantiriladi.

Reyn daryosining o‘ng sohilida yashagan saks qabilalariga qarshi urushlar 30 yildan ortiq (772-804) davom etadi. Sakslar germanlarning Karlga bo‘ysunmagan so‘nggi yirik qabilasi bo‘lgan. Karl sakslarni har qanday yo‘l bilan xristian diniga o‘tkazishga harakat qilgan. Uzoq kurashdan so‘ng Karl sakslarni yangi dinga o‘tkazishga erishgan. Shu tariqa Saksoniya ham Buyuk Karl davlatiga qo‘shib olingan.

Karlning maslahatchilarida uni qadimgi rimliklarga taqlid qilib, imperator deb e’lon qilish g‘oyasi tug‘ilgan. Bunday imkoniyat 800-yilda Rim mahalliy zodagonlarining papa Lev III ga qarshi isyon ko‘tarishi orqali vujudga kelgan. Karl qo‘shin yuborib, isyonni bostirgan.

Bu yordam evaziga Lev III 800-yilning dekabrida Karlga imperatorlik tojini kiydiradi. Shu tariqa G‘arbda yangidan imperiya paydo bo‘ladi.

Buyuk Karl franklar imperiyasining mutlaq hukmdoriga aylanib, uning farmonlari faqat zodagonlar, yer egalarining yilda ikki marta chaqiriladigan yig‘inida qabul qilingan.

Buyuk Karlning doimiy poytaxti ham yo‘q edi. U o‘z amaldorlari bilan mamlakat bo‘ylab harakatlanib, turli shaharlardagi saroylarida to‘xtagan, mahalliy aholiga og‘irligi tushmasligi uchun uzoq vaqt o‘tmay yana boshqa shaharga yo‘l olgan. Buyuk Karl davrida franklarda an’anaviy xalq lashkari o‘rnida otliq ritsarlar qo‘shini vujudga keladi.

Buyuk Karlning saroy xizmatkorlari ayni paytda vazirlar vazifasini ham bajargan. Moliya, soliq, harbiy a’yonlari, dasturxonchi, otxona boshlig‘i va boshqalar Franklar davlatidagi muhim lavozimlardan hisoblangan.

Buyuk Karl o‘z davlati chegaralarini mustahkamlash maqsadida markalar (nemischa, chegara harbiy viloyati) tuzib, ularni markgraflar (nemischa, chegara viloyati hokimi) boshqargan.

Yepiskoplar, yirik monastirlar abbatlari imperatorning joylardagi vakillari sifatida uning buyruqlarini bajargan. Safarlari paytida Buyuk Karl yepiskoplar va graflaming ishlari qanday ketayotganligini tekshirgan. Agar suiiste’molliklar aniqlansa, javobgar darhol lavozimidan ozod etilgan. Imperatorning o‘zi barcha graflik va yepiskopliklarni aylanib chiqishi qiyin ekanligidan u o‘zi ishongan davlat vakillarini mamlakat bo‘ylab jo‘natar edi. Ularga mahalliy hokimlarni jazolash, alm ashtirish huquqlari berilgan.

Franklar mamlakatining hududlari behad katta bo‘lishi nazoratni murakkablashtirgan. Barcha grafliklami nazoratda saqlash mushkul edi. Bundan tashqari, graflar bor kuchi bilan graflikda o‘rnashishga, uni o‘z avlodlariga meros qilib qoldirishga intilgan. Bu esa franklar imperiyasini kelajakda zaiflashuvi va parchalanishiga yo‘l ochib bergan.

Yevropa hukmdorlari orasida katta hurmatga ega bo‘lgan Karl saroyiga ko‘plab elchilar kelib turishgan. Yilnomalarda yozilishicha, arab xalifasi Horun ar-Rashid (786-809) o‘z elchilari orqali Karlga qimmatbaho sovg‘alar bilan birga Quddusdagi Iso payg‘ambar qabri joylashgan yemi ham taqdim etgan.

Yillar o‘tib mamlakatda graflar davlat amaldorlaridan – yirik yer egasi, o‘z viloyatining xo‘jayiniga aylana borgan. Graflikdagi erkin dehqonlar qaramlikka tusha boshlagan. Qirolning sud ishlarini boshqarishni graflarga topshirishi ham ulaming hokimiyatini kuchaytirib yuborgan. Buyuk Karlning vafotidan ko‘p o‘tmay, u tuzgan

imperiyaning inqirozi boshlanadi. Uning nabiralari davrida mamlakat parchalanib ketadi. Verden shahrida 843-yilda tuzilgan shartnomaga binoan vujudga kelgan qirolliklar o‘rnida, keyinchalik, Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari tashkil topadi.

Buyuk Karl o‘z davlatida yangi maorif tizimini yaratadi. Qirol farmoniga ko‘ra, xalq maktablari joriy etiladi. Unga binoan, maktablar ibodatxonalar qoshida tashkil etilib, ruhoniylarga oddiy xalq farzandlarini bepul o‘qitish buyurilgan. Saroyda ham maktab tashkil etilib, unda Karlning yaqin do‘stlari, olimlar – saroy akademiyasi a’zolari saboq berishgan. Saroy akademiyasi antik davr mualliflari asarlarini o‘rganish, she’rlar bitish bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Ulardan biri tarixchi-rohib Eyngard asaridan biz Buyuk Karl hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni olamiz. Eyngardni ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi tufayli zamondoshlari «mehnatsevar chumoli» deb ataganlar. Saroy akademiyasining yana bir a’zosi Alkuin va uning shogirdlari maorifni yoyishda katta xizmat qilgan.

>LYUDOVIK VI – Fransiya qiroli (XII asr). *XII asr boshlaridan* o‘z domenida tartib o‘rnatishga harakat qila boshlaydi.
① ***O‘zboshimcha baronlar*** qal’alarini buzib, ularni bo‘ysundiradi.
② ***Burj*** *va* ***Sans*** shaharlarini o‘z yer-mulkiga qo‘shib oladi.
③ Lyudovik VI ning omadi yurishib o‘g‘lini ***Akvitaniya gersogining yagona merosxo‘riga*** uylantirishi qirollik yerlarini yanada kengaytiradi.
④ Uning davridan boshlab yangi o‘zlashtirilgan yerlarda ***dehqonlar qaramligi*** bekor qilindi.
⑤ Soliqlarning bir qismi ***pul bilan*** to‘lanadigan bo‘ladi.

>FILIPP II – Fransiya qiroli (XIII asr). Kapetinglar sulolasidan.
① Angliya qiroli **Ioann** (1199–1216) bilan inglizlarning Normandiyadagi mulklari uchun kurash boshlagan. «Ingliz tojining marvaridi» hisoblangan ***Normandiya*** *XIII asr boshlarida* tortib olingan.
② Tez orada qirol mulklariga mamlakat janubidagi ***Tuluza*** grafligi ham qaytariladi. Natijada, qirol Fransiyadagi *eng kuchli feodalga* aylanadi.
③ Qirol mulklarining kengayishi umum davlat boshqaruv tashkilotlari: Qirol kengashi, Oliy sud va Moliya boshqarmasining tuzilishi bilan yakunlanadi.

>LYUDOVIK IX – Fransiya qiroli (XIII asr). Kapetinglar sulolasidan.
① Qirol yerlaridagi *feodal urushlarini* taqiqlagan.
② Oltin va kumush *tangalar* zarb ettiradi va bu tangalarni Fransiyaning barcha viloyatlarida o‘tishi huquqini belgilaydi.
③ Natijada, mamlakatda *gersog va graflar zarb etadigan 40 xil pul* asta-sekin surib qo‘yiladi. Bu tadbir savdo-sotiqni ham osonlashtiradi.
④ 1269–1270-yillarda so‘nggi – *sakkizinchi salib yurishlarini* amalga oshiradi.

>FILIPP IV – Fransiya qiroli (1285–1314). Kapetinglar sulolasining oxirgi vakili.
① ***Shampan*** grafligi, ***Lion*** shahri va viloyatini qirol domeniga qo‘shib olgan.
② Keyingi harakatlari mamlakatning shimolidagi ***Flandriyani*** egallashga qaratilagan.
③ Yevropa hukmdorlaridan birinchi bo‘lib katta yer-mulklarga egalik qilayotgan *cherkovdan soliq* talab qiladi.

Rim papasi **Bonifatsiy VIII** (1294–1303) ruhoniylarga Fransiya qiroliga soliq to‘lashni man etishdan tashqari, Filipp IV dan Flandriyaga qarshi urushni to‘xtatishini talab qiladi. Fransiya qirolining Papa xohish-irodasiga bo‘ysunmaganligiga javoban Bonifatsiy VIII Filipp IV ning cherkovdan xoliligini tantanali e’lon qilish uchun tayyorgarlikka kirishadi.

Bunga javoban Fransiya qiroli *1302-yilda* uch toifa vakillari ④ ***(general shtatlar)***: ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklarni chaqirib, ularga papa bilan mojaroni muhokama qilishni taklif etadi. Keng jamoatchilik ko‘magiga tayangan Filipp IV papaga qarshi harakatni boshlab, to‘liq g‘alaba qozonadi. Fransiya arxiyepiskopi papalikka saylanadi. Uning davrida papa qarorgohi Rimdan Fransiyaning janubi – Avinon shahriga ko‘chib o‘tishiga qaror qilinadi. Avinon fransuz qiroli mulkiga kirmasa-da, albatta, uning bu yerdagi ta’siri katta edi. Shu tariqa «papalarning Avinon tutquni» ga (1309-1377) Filipp IV ma’lum ma’noda sababchi bo‘ladi.

Filipp IV boshlagan ⑤ ***»tampliyerlar ishi»*** ham Yevropada katta shov-shuvga sabab bo‘ladi. 1307-yilda ordenning buyuk magistri qamoqqa olinadi. Ordenning bitmas-tuganmas boyliklari haqidagi mish-mishlar ularning boshiga balo bo‘ladi. «Avinon papa»sidan rozilik olib, tampliyerlarning mol-mulklari musodara qilina boshlanadi. Ko‘plari qiynoqqa solinib, gulxanlarga tashlanadi. Buyuk magistr 1314-yilda o‘limga mahkum etiladi.

Shu tariqa XIV asrda, Filipp IV davridan Fransiyada ⑥ ***toifaviy monarxiya***, ya’ni toifa vakillari yig‘iniga suyanadigan, markazlashgan davlat shakllana boshladi.

Uning o‘limidan so‘ng Fransiya va Angliya o‘rtasidagi toj-u taxt masalasidagi bahs urushga aylanib ketadi. Bu urush tarixga *«yuz yillik urush»* (1337-1453) nomi bilan kirgan.

>IOANN SAXIY – Fransiya qiroli (XIV asr). «Yuz yillik urush» (1337-1453) davridagi qirollardan biri. Puate jangida (1356) o‘g‘li **Filipp** bilan birga Angliya shahzodasi **Eduard**ga asirga tushgan.

>KARL V DONO – Fransiya qiroli (XIV asr), «Yuz yillik urush» davridagi (1337-1453) qirollardan biri.
① Uning davrida Angliyaning ***tinchlik sulhi*** (1360) ga ko‘ra, Fransiyaning ***1/3 qismi*** inglizlarga o‘tgan.
② Harbiy islohotlar o‘tkazib, kuchli to‘pchilar qo‘shini va flot tuzishga kirishadi. ***Yagona qo‘mondonlik*** joriy etilib, uning vakolatlari kengaytiriladi. Ushbu lavozimga tayinlangan **Dyugeklan**ni tayinlaydi.

>KARL VI – Fransiya qiroli. ***Amir Temur bilan elchilik aloqalari*** olib borgan. 1403-yilning may oyida Amir Temurning elchilarini Parijda kutib olgan. 1403-yilning 15-iyunda Amir Temurga javob maktubi yo‘llagan va ikkala mamlakat o‘rtasida erkin savdo-sotiq qilish to‘g‘risadagi taklifiga roziligini bildirgan.

>KARL VII – Fransiya qiroli (1422–1461). Uning davrida:
① «Yuz yillik urush» Fransiya foydasiga hal bo‘ladi. Inglizlarda faqatgina Kale porti qoladi.
② 1430-yilda Kompen qal’asi uchun janglarda burgundlar tomonidan asirga olingan qahramon qiz Jannani qutqarishga urinib ham ko‘rmagan.

Uning o‘limidan so‘ng taxtga o‘g‘li **Lyudovik XI** o‘tirgan.

>LYUDOVIK XI – Fransiya qiroli (1461–1483), Karl VII ning (1422–1461) o‘g‘li.
① [1]***Bretan*** *va* [2]***Anju*** gersoglarini bo‘ysundirgan.
② Bunga javoban yirik feodallar ***«Jamiyat baxt-saodati ittifoqi»***ni tuzadilar. Uning rahbari **Karl Burgundskiy**ga qarshi Lyudovik muvaffaqiyatli kurash olib borib, [3]***Burgundiyaning g‘arbiy*** qismini Fransiyaga qo‘shib oladi.
③ Fransiyaning janubidagi [4]***Provans viloyati Marsel porti*** bilan 1481-yilda qirol hukmiga o‘tadi.

Undan so‘ng Fransiya taxtini o‘g‘li Karl VIII egallagan.

>KARL VIII – Fransiya qiroli (1483–?). Lyudovik XI ning (1461-1483) vorisi. Karl VIII davrida Fransiyaning ***markazlashuvi yakunlangan***. Bunga uning *Bretan* gersogining qizi **Anna**ga uylanishi (1491) tufayli erishilgan.

>ANGLIYA HUKMDORLARI

Hukmdorlar	Asr	Zamondoshlar **(yozib chiqing)**
Amvrosiy Avrelian	VI	
Buyuk Alfred	IX	
Garold	XI	
Vilgelm I		
Genrix II	XII	
Richard I Sheryurak		
Ioann Yersiz		
	XIII	
Eduard III	XIV	
Richard II		
Genrix VII Tyudor	XV	

>AMVROSIY AVRELIAN – qadimgi Britaniya orolidagi davlatning hukmdori (VI asr). Oroldagi *so‘nggi rimliklardan* bo‘lgan Amvrosiy Avrelian *mil. avv. VI asrning boshlarida* brittlarni birlashtirib, germanlarning angl-saks qabilalariga qarshilik ko‘rsatgan. *Kuchli qo‘shin* tuzgan. Angl-sakslar tazyiqini deyarli *yarim asrga* to‘xtatgan.

Oradan asrlar o‘tib dostonchilar uni Artorius yoki Artur deb atay boshlashgan. Ritsar Lanselot, qirolicha Jinevra, sehrgar Merlin haqidagi afsonalar ham uning nomi bilan bog‘lanadi.

Amvrosiy Avreliandan so‘ng brittlarda *munosib yo‘lboshchi bo‘lmasligi* angl-sakslar tomonidan orolning katta qismi bosib olinishiga imkon bergan.

>BUYUK ALFRED – *angl-sakslar* hukmronligi ostidagi Uesseks qiroli (871–900). U taxtga kelguniga qadar daniyaliklarni hech kim to‘xtatishga qodir bo‘lmagan. Buyuk Alfred butun Angliyadan bosqinchilarni jazolash orzusidagi jangchilarni yig‘adi. U bu qo‘shin bilan daniyaliklarni bir necha bor mag‘lub etadi.

Alfred *879-yilda* ***daniyaliklar bilan tinchlik sulhini*** tuzadi. Unga binoan, butun orol ikki qismga bo‘linib: janubiy hududlar Alfredga, shimoliy hududlar esa daniyaliklarga beriladi. Chegara London va Chechter oralig‘idagi qadimgi rimliklar

qurdirgan tosh yo‘l bo‘ylab o‘tadi. Skandinavlarga qoldirilgan yerlar Denlo nomini oladi.

Alfred tinchlik sulhidan yangi kuchli ***qo‘shin*** tuzish uchun foydalandi. Ma’lumki, avvallari dushman xavfi tug‘ilganida xalq lashkari to‘planardi. Endi ***har beshta angl-saks oltinchisini*** boqishi va qurollantirishi majburiy etib qo‘yiladi.

Natijada tinimsiz urushlar davrida qishloqning ko‘pchilik aholisi o‘z ishidan ajratilmagan. Yangi qoidaga binoan, besh kishi oltinchisini dubulg‘a, qilich va jang boltasi bilan ta’minlab, vikingdan kam qurollantirmagan. Qolaversa, ushbu oltinchi kishi doimo mashq qilishi, jangga tayyorlanishi shart edi. Uning uchun qolgan beshta qo‘shnisining ishlashi oilasi haqida o‘ylamasligi uchun ham imkon beradi. Shu tariqa son jihatidan qisqargan Alferd qo‘shini sifati bo‘yicha avvalgiga nisbatan sezilarli kuchayadi. Yangi qo‘shinning paydo bo‘lishi bilan jamiyatda ham muhim o‘zgarishlar bo‘ladi.

Jamiyatda professional ziroatchilardan tashqari ***jangchilar toifasi*** vujudga keladi. Alfred daniyaliklar qal’alarni qamal qilishni unchalik xush ko‘rmasligini anglab, o‘z mulklari chegaralarida ko‘plab qal’alar – ***burglar*** barpo ettiradi. Qirol ***kema*** yasaydigan ustalarni topib, daniyaliklarnikidan qolishmaydigan kemalarni yasattiradi.

Qirol Alfred faqat qo‘shin bilan shug‘ullanmagan. U o‘z davrining ma’lumotli kishisi bo‘lgan. Uesseksda esa daniyaliklar hujumlaridan keyin lotin tilini biladigan odamlar deyarli qolmagan edi.

U eski angl-saks qonunlarini yozishni va Angliya tarixiga oid ma’lumotlar to‘plashni buyuradi. Buyuk Alfred davrida ***«Anglosakson solnomasi»*** tuzilib, unda yilma-yil muhim voqealar qayd etila boshlanadi.

>GAROLD – Angliya qiroli (?-1066). *Normandiya* gersogi **Vilgelm** bilan bo‘lgan ***Gastings jangi***da (1066) halok bo‘lgan. Shundan so‘ng Normandiya gersogi qirollik taxtini egallab, Vilgelm I nomini olgan. Angl-sakslar boshqaruviga chek qo‘yilib, normandlar hukmronligi boshlanadi.

>VILGELM I – Angliya qiroli (1066–?), ungacha Fransiyaning shimolidagi *Normandiya* gersogi.

1066-yilda ***Gastings jangida*** **Garold** boshchiligidagi angl-sakslar qo‘shinini mag‘lub etib, qirollik taxtini Vilgelm I nomi bilan egallagan. Angliya tarixida normandlar hukmronligini boshlab bergan.

Vilgelm mahalliy feodallar — angl-sakslar ***yerlarini tortib olib***, o‘z ritsarlariga bo‘lib bergan. Ayni paytda kichik va o‘rta yer egalari o‘z mulklarini saqlab qolishgan. Vilgelm I barcha feodallarni ***qirolga sodiqlikka qasamyod*** qildirgan.

>GENRIX II – Angliya qiroli (1154–1189).
① Angliyada ***moliya va harbiy islohotlar*** o‘tkazilgan.
② Baronlarga harbiy xizmat o‘rniga xazinaga ***«qalqon puli»*** solig‘i to‘lashiga ruxsat berilgan.
③ Bu qirolga ***muntazam yollanma qo‘shin*** tuzish imkonini bergan.

>RICHARD I SHERYURAK – Angliya qiroli (XII asr), uchinchi salib yurishlari (1189–1192) ishtirokchisi. Undan so‘ng taxtga ukasi **Ioann** (1199-1216) o‘tirgan.

>IOANN YERSIZ – Angliya qiroli (1199-1216), Uchinchi Salib yurishi ishtirokchisi **Richard I Sheryurak**ning ukasi.

Uning davrida mamlakatda qo‘zg‘olonlar avj olgan.

Uning quyidagi siyosati barchani o‘ziga qarshi qilib qo‘yadi:

1) O‘z kuchiga ishongan qirol gunohkor hisoblangan ***baronlarning mulklarini tortib olgan***.

2) ***vassallaridan katta to‘lovlar*** talab etgan.

Baronlar *ritsarlar* va *shaharliklar* ko‘magida *1215-yilning bahorida* isyon ko‘taradilar. Poytaxt London aholisi qo‘zg‘olonchilarga darvozalarni ochib beradilar. Ioann ***«Buyuk ozodlik xartiyasi»*** nomini olgan hujjatni imzolashga majbur bo‘ladi. Hujjat 63 moddadan iborat bo‘lgan. Uning asosiy moddalari ***baronlar*** va ***ruhoniylar*** manfaatini ifodalagan.

Qirol unda quyidagi shartlarni qabul qiladi:

[1]*cherkovning* ***erkin saylovlar****iga rioya qilishi;*

[2]*vassallardan odatdagidan ko‘p* ***to‘lovlar*** *olmaslik;*

[3]*baronlarni* ***qamamaslik****;*

[4]*baronlarni* ***mol-mulkidan mahrum etmaslik****;*

[5]***ritsarlar*** *va* ***erkin dehqonlardan*** *belgilanganidan* ***ko‘p xizmat va to‘lovlar*** *olish taqiqlanadi.*

[6]***erkin kishilarga qirol amaldorlari o‘zboshimchaliklari*** *va qo‘shimcha jarimalardan himoya qilish.*

Ioanning «Yersiz» laqabini olishiga ko‘plab urushlarda mag‘lub bo‘lib, o‘z hududlaridan ayrilishi sabab bo‘lgan. Chunonchi, Fransiya qiroli **Filipp II** bilan «Ingliz tojining marvaridi» hisoblangan ***Normandiyani*** saqlab qolish uchun kurash olib borib, mag‘lubiyatga uchragan. *XIII asr boshlarida* Normandiya, tez orada esa ***Tuluza*** grafligi ham Fransiya tasarrufiga o‘tgan.

Uning hukmronlik davri katolik cherkovi o‘z hukmronligining cho‘qqisiga chiqqan davrga to‘g‘ri kelgan. Ya’ni Ioann deyarli **Innokentiy III** bilan aynan bir davrda hukmronlik qilgan. Innokentiy III esa Yevropa hukmdorlariga o‘z ta’sir doirasining kuchliligi bilan papalik tarixida ajralib turar edi.

>EDUARD III – Angliya qiroli, Fransiya qiroli **Filipp IV** ning (1285–1314) qizidan nabirasi.

Fransiya qiroli Filipp IV ning o‘limidan so‘ng taxtga da’vogar erkak zurriyot qolmaydi. X asrdan buyon davom etayotgan Kapetinglar vorisi deb Valualar oilasi tan olinadi. Ammo inglizlar qiroli Eduard o‘zini har qanday valualardan taxtga haqliroq deb e’lon qilinadi.

Vorislik haqidagi bahs qurol yordamida yechila boshlanadi. *1337-yilda* Fransiya qiroli mamlakatning janubi-g‘arbidagi inglizlarning ta’siri ostidagi *Akvitaniya* yerlarini o‘z tasarrufiga olganini e’lon qiladi. Bunga javoban Eduard III Fransiyaga qarshi urush boshlaydi. Bu urush tarixga ***«yuz yillik urush»*** (1337–1453) nomi bilan kirgan.

Inglizlar *1340-yilda* Fransiya dengiz flotini yengib, quruqlikda hujumga o‘tadilar. Dastlabki yirik jang *1346-yilda* ***Kresi*** yaqinida bo‘lib, unda fransiyaliklar qo‘shini mag‘lubiyatga uchraydi.

Ingliz qo‘shinlarining intizomi, son jihatidan ustun bo‘lishi, puxta tayyorgarligi Angliya ustunligini ta’minlaydi. Erkin dehqonlardan tuzilgan kamonchilar bo‘linmasi ham g‘alaba omillaridan biri bo‘ladi. Inglizlar qo‘shini qiroldan maosh

olgan harbiy boshliqlar buyrug‘ini so‘zsiz bajargan. Fransiya qo‘shini alohida ritsarlik bo‘linmalaridan tashkil topgan bo‘lib, har bir ritsar mustaqil harakat qilgan. Qo‘shinda yagona boshqaruv va harbiy intizom bo‘lmagan.

1356-yilda Fransiyaning son jihatidan ikki baravar katta qo‘shini – Angliya shahzodasi **Eduard** bo‘linmasini ta’qib etib, unga ***Puate*** yaqinida yetib oladi.

Eduard, agar fransuzlar uni qo‘shini bilan o‘tkazib yuborishsa, barcha o‘lja va asirlarni, qo‘lga kiritgan qal’a va qasrlarini berishga tayyorligini bildiradi. Lekin Fransiya qiroli shahzodaning o‘z a’yonlari bilan asirlikka tushishga rozi bo‘lishini talab qiladi. Natijada Eduard jang qilishdan boshqa chora qolmaganiga ishonch hosil qiladi. Jang davomida fransuzlarning birikmay harakat qilishi eng sara ritsarlarning halokatiga sabab bo‘ladi.

Fransiya qiroli **Ioann Saxiy** va o‘g‘li **Filipp** asirga tushadi. Ammo urushning dastlabki davrida g‘alaba qozonayotgan Angliya, urush yakuniga mag‘lub bo‘lgan.

>RICHARD II – Angliya qiroli (XIV asr), «Yuz yillik urush» davri (1337–1453) qirollaridan biri.

1377-yilda qo‘shimcha ***jon solig‘i*** joriy etgan. *1380-yilda* jon boshi solig‘i 3 baravarga oshirilgan.

Soliqni yig‘ishdagi suiiste’molliklar, nohaqliklar Angliyada xalq qo‘zg‘oloni boshlanishiga olib keladi.

1381-yilning may oyida tunakasoz **Uot Tayler** boshchiligida dehqonlar qo‘zg‘olon ko‘taradi. **Jon Boll** ham uning rahbarlaridan biriga aylanadi.

Qo‘zg‘olon natijasida imzolangan ***«Mayl End»*** dasturida Richard II quyidagi shartlarga rozi bo‘ladi:

1) dehqonlar qaramligini bekor qilish;
2) erkin savdoga ruxsat berish;
3) yer solig‘ini kamaytirish.

Qirol bilan uchrashuvdan so‘ng qo‘zg‘olonchilaming o‘ziga to‘q qismi uylariga tarqalishadi. Lekin qo‘zg‘olonchilarning kambag‘al qismi bunga qoniqmay Londonda qoladi va qirol bilan yana uchrashish uchun Smitfildga boradilar. Smitfilddagi uchrashuv paytida Uot Tayler qirol a’yonlaridan biri bilan to‘qnashuvda yaralanib halok bo‘ladi. Sarosimada qolgan dehqonlarga, ularning barcha talablari bajarilishi va’da qilinib, shaharni tark etishga ko‘ndiradilar.

Smitfilddagi yangi ishlab chiqilgan dasturda quyida shartlar bor edi:

1) feodallar tortib olgan yaylov va o‘rmonlarni qaytarish;
2) ibodatxona yerlarini musodara qilib dehqonlarga bo‘lib berish;
3) aholini teng huquqli bo ‘lishini ta’minlash.

Ammo, qo‘zg‘olonchilar izidan yuborilgan qo‘shin yuborilib, ular qirib tashlanadi. Qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga uchrasa-da, uning ta’sirida:

1) Angliyada dehqonlarning mehnat majburiyatlaridan voz kechiladi.
2) Qaram dehqonlar XV asr davomida to‘lov evaziga ozodlikka erishadi.
3) Soliqlar tartibga solinadi.

>GENRIX VII TYUDOR – Angliya qiroli (1485–?), tyudorlar sulolasining (1485-1603) dastlabki vakili. ***«Qizil va oq gullar»*** urushida (1455-1485) *Lankasterlar* xonadoni qo‘llashi tufayli *yorklar* ustidan g‘alaba qozonib taxtga o‘tirgan. Uning davrida qirol hokimiyati kuchayib boradi. Urushlarda qirilib ketgan normand zodagonlari o‘rniga, qirol ***lordlar palatasiga kiritgan yangi angl-saks***

zodagonlari uning ishonchini qozonishga intilgan. Umumpalatasiga taklif qilingan ***ritsarlar va shaharliklar*** ham qirol kiritgan qonunlarni tasdiqlar, unga yangi soliqlar yig‘ishga ko‘mak berardi. Undan so‘ng **Genrix VIII Tyudor** hokimiyatni o‘z qo‘liga olgan.

>GERMANIYA HUKMDORLARI

Hukmdorlar	davr	Zamondoshlar **(yozib chiqing)**	
		Hukmdorlar	boshqalar
Genrix I	X		
Otton I			
Otton III	XI		
Fridrix I Barbarossa	XII		
Fridrix II	XIII		
Rudolf Gabsburg			

>GENRIX I – Germaniya qirolligi asoschisi (919–936-yillarda hukmronlik qilgan), ungacha Saksoniya gersogi.

843-yilda Franklar imperiyasi uchga bo‘linib ketganida, dastlab ularning hammasini Buyuk Karlning avlodlari boshqargan. *919-yili* Sharqiy Frank qirolligida (bo‘lajak Germaniya) mahalliy zodagonlar knyazlardan eng qudratlisi bo‘lgan Saksoniya gersogi Genrixni qirollikka saylaydilar. Natijada, franklarning karolinglar sulolasi o‘rniga mahalliy *saksoniyaliklar sulolasi* hokimyatga keladi. Shu tariqa yangi davlat – Germaniya qirolligi vujudga keladi.

Vengerlar bilan 9 yilga tinchlik sulhi tuzgan qirol mamlakat mudofaa qudratini yuklasaltirish maqsadida qator tadbirlarni amalga oshiradi. Genrix qishloqda yashaydigan har ***9 kishidan 1 tasini*** tanlab, uni burg (qal’a)ga ko‘chiradi. To‘planganlar burgda o‘z birodarlari uchun ham uy-joy qurishga kirishadilar. Qishloqda qolgan sakkiz kishi o‘zlarining jangchilikka tayinlangan sheriklari uchun ham dehqonchilik qilganlar. Genrix barcha yig‘inlar, cherkov soborlarini, bazmlarni burgda o‘tkazishni buyuradi. Qurilish kecha-yu kunduz davom etgan, sulh muddati tugaguniga qadar aholining asosiy mulki burglarda bo‘lishi lozim bo‘lgan. Undan so‘ng o‘g‘li va vorisi **Otton I** (936-973) taxtga chiqqan.

>OTTON I – *saksoniyaliklar sulolasidan* bo‘lgan Germaniya imperatori (936–973), ***Muqaddas Rim imperiyasi asoschisi*** (962), Genrix I ning (919–936) o‘g‘li va vorisi.

Otton davrida:

1) kuchli ***nemis otliq qo‘shini*** vujudga keldi. Uning asosini og‘ir qurollangan ritsarlar otliq qo‘shini tashkil etgan;

2) *955-yilda* Bavariyaning ***Lex daryosi*** bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangda ***vengerlarni mag‘lub etgan***.

*Shundan so‘ng **o‘zidan avval hech kim yenga olmagan** dushmanni mag‘lub etgan Otton I o‘zini Yevropadagi eng kuchli qirol deb hisoblay boshlagan. Ushbu g‘alaba unda Buyuk Karl singari Rimda imperatorlik tojini kiyish hamda imperator unvonini olish istagini uyg‘otadi;*

3) *962-yilda* o‘z qo‘shini bilan Rimga kelgan Otton I ga papa **Ioann XII** imperatorlik tojini kiydiradi. Shu tariqa yangi imperiya — ***Muqaddas Rim imperiyasi*** vujudga keladi.
4) Otton I Germaniyadagi ***yepiskop va abbatlarga*** yer-mulk, boyliklardan tashqari ko‘plab huquq va imtiyozlar beradi. Natijada cherkov zodagonlari o‘z imkoniyatlari, hokimiyatlari bo‘yicha gersog va graflardan kam bo‘lmagan;
5) Otton I Rimda ko‘plab yepiskoplar ishtirokida o‘zi yoqtirmagan papalardan birining ustidan ***sud jarayonini*** uyushtirib, uni tahqirli holatda vazifasidan chetlatgan.

>OTTON III – *saksoniyaliklar sulolasidan* bo‘lgan Germaniya imperatori, **Otton I** ning vorisi, «dunyo mo‘jizasi» nomiga sazovor bo‘lgan.

Otton III ***Rimni ulkan davlatning poytaxtiga aylantirish*** orzusida bo‘lgan. U ***butun xristian dunyosi Rim imperatori hukmida birlashishi lozim*** deb hisoblagan.

Otton III o‘zining ustozi **Gerbert**ning **Silvestr III** (999–1003) nomi bilan Rim papaligiga saylanishiga erishgan.

>FRIDRIX I BARBAROSSA – *shtaufenlar sulolasidan* bo‘lgan Germaniya imperatori (1152–1190).

Dastlab Fridrix I o‘z istilolarini salib yurishlari tufayli boyib ketgan ***Italiya*** shaharlariga qaratadi. Bunga faqat *Milan va Lombardiyaning* bir necha shaharlari qarshi chiqadi. *1158-yilda* Ronkal vodiysida chaqirilgan seym (kengash) imperatorning ***Italiyadagi hokimiyatini cheklanmagan*** deb e’tirof etadi.

Fridrix I ning *Bolonyadan* taklif etgan eng bilimdon huquqshunoslari uning xizmatiga kirib, ***qonunlar majmualarini*** tuzib beradilar. Bu qonun to‘plamlarida Fridrix I ***“yerdagi jonli qonun”*** deb e’tirof qilinadi.

Mavjud vaziyatda *Milan boshchiligida Lombardiya shaharlari* bosqinchilarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Qo‘zg‘olonni bostirish davomida Milan aholisiga sakkiz kunda shaharni tashlab ketish sharti qo‘yiladi. Milan *XII asrning 60–70-yillarida* qayta tiklanib, yangi jangga hozirlik ko‘ra boshlaydi. *1176-yilda* ***Lenyano jangida*** Liga qo‘shini imperator ritsarlarini tor-mor qiladi. Fridrix I Shimoliy Italiya shaharlariga *kommuna – erkinlik huquqini* berishga majbur bo‘ladi.

>FRIDRIX II – *shtaufenlar sulolasidan* bo‘lgan Germaniya imperatori (qirol maqomida 1212–1220-yillar, imperator maqomida 1220–?-yillar).

Rim papasi **Innokentiy III** (1198–1216) yordamida 1212-yilda qirol bo‘lgan. Keyingi Papaning qo‘llashi natijasida 1220-yilda imperator bo‘lishga erishgan.

Fridrix II imperatorligining yigirma yilidan ko‘pini Italiyada, *Sitsiliya qirolligida* o‘tkazadi. Uning saroyida arab, vizantiyalik va yahudiy olimlar to‘plangan. Fridrixning o‘zi arab va yunon tillarini bilgan, lotin va italyan tillarida ijod qilgan. Uning ***Palermodagi saroyi*** arab xalifalarining saroylarini eslatar edi. Imperator Sharq madaniyatining muxlisi bo‘lgan. Sharq hukmdorlarining ayrimlari bilan do‘st tutingan.

Imperator mamlakat bo‘ylab harakatlanganida uni jangchilar va filbonlar o‘tirgan fillar kuzatib borgan. Fillar ortidan tuyalar, yo‘lbarslar, sherlar, qoplonlar yetaklab yurilgan. Fuqarolarda bu jarayon kuchli taassurot qoldirgan. Fridrix II devonxonasida *lotin tilining nozik jihatlaridan* foydalanib, maktublar, hujjatlar

bitilganki, unga butun Yevropa taqlid qilgan. Fridrix II yozgan «***Qushlar bilan ov qilish***» asari uning bu sohadan yaxshi xabardorligidan darak beradi; asar hozirgacha saqlanib qolgan. Imperator qator maktablar va ***Neapol universiteti*** asoschisidir. U cherkov yoki shahar kengashi emas, hukmdor tomonidan tashkil etilgan birinchi universitet bo‘lgan.

Zamondoshlari Fridrix II ning g‘ayritabiiy qobiliyati va qudratiga qoyil qolib, unga «***Jahon hayrati***» deb nom berishgan. Fridrix II ning vafotidan so‘ng papalar tarafdorlari shtaufenlar sulolasining vakillarini taxtdan chetlatishga intilishgan.

>RUDOLF GABSBURG – Germaniya imperatori (1273–?), *gabsburgalar* sulolasidan. Ammo Gabsburglarning dastlabki boshqaruvi uzoq davom etmagan Lyuksemburglar sulolasiga qarshi kurash olib boradi. Gabsburglarning 369 yillik imperatorlik davri faqat 1437-yildan boshlanadi.

>RUS HUKMDORLARI

Knyaz	Hudud	Asr	Zamondosh tarixiy shaxslar **(yozib chiqing)**
Sineus	Beloozero	IX	
Truvor	Izborsk		
Ryurik	Novgorod		
Oleg	Kiyev	X	
Igor	Kiyev		
Olga	Kiyev		
Svyatoslav	Kiyev		
Vladimir	Kiyev		
Svyatopolk	Kiyev	XI	Chingizxon
Yaroslav Donishmand	Novgorod, Kiyev		
Vladimir Monamax	Kiyev		
Yuriy Dolgorukiy	Vladimir	XII	Chingizxon,
Vsevolod Mstislavich	Novgorod		
Yaroslav	Vladimir	XIII	O‘qtoy, Chig‘atoy, Jo‘ji, Tuli, **Botuxon**, Berkaxon, Xuloku, Xubilay
Aleksandr Nevskiy	Novgorod		
Ivan Kalita	Moskva	XIV	**To‘xtamishxon**, O‘zbekxon, Jonibek,
Dmitriy Ivanovich	Moskva		
Ivan III	Moskva	XV	

>RYURIK – sharqiy slavyanlarning taklifiga binoan ***Novgorodda*** knyazlik qilgan. Ko‘p o‘tmay ukalari – **Sineus** (*Beloozero knyazi*) va **Truvor** (*Izborsk knyazi*) lar vafot

etgach, yakka hukmronlik qila boshlagan. Vafotidan so‘ng o‘g‘li **Igor** yosh bo‘lganligi sababli hokimiyat uning qarindoshi **Olegga** o‘tgan.

>OLEG – Kiyev Rusi asoschisi, **Ryurik**dan so‘ng o‘g‘li **Igor** yosh bo‘lganligi sababli rus yerlarida hukmronlik qila boshlaydi. *882-yilda* ***Kiyevni egallab***, Kiyev Rusi nomini olgan davlatga asos soladi.

Slavyan qabilalarini ***shimolda Ladoga*** ko‘lidan, ***janubda Dneprning*** quyilishigacha birlashtirgan. ***Vizantiya bilan*** rus savdogarlariga bojsiz savdo qilishiga ruxsat beruvchi shartnoma tuzgan.

Undan so‘ng Igorning knyazligi (912–945) boshlangan.

>IGOR – Kiyev Rusi knyazi (912–945), rus yerlari hukmdori **Ryurik**ning o‘g‘li. Otasining vafotidan so‘ng Igor yosh bo‘lganligi sababli hokimiyat qarindoshi **Olegga** o‘tgan.

Olegdan so‘ng taxtga o‘tirgan Igor o‘z knyazligini ko‘chmanchi ***bijanak*** qabilalariga qarshi urushdan boshlagan. Tuzilgan shartnoma Konstantinopol tomonidan bajarilmaganligi tufayli Igor ***Vizantiyaga qarshi ikki marta yurish*** qilgan. Natijada Vizantiya *jangsiz tinchlik shartnomasini* tuzib, katta o‘lpon to‘laydi. Igor 945-yilda ***drevlyan*** qabilalari bilan to‘qnashuvda halok bo‘ladi.

Uning rafiqasi **Olga** (945-964) o‘g‘li **Svyatoslav** balog‘atga yetgunicha Kiyev knyazligini boshqargan.

>OLGA – Kiyev Rusi knyazi (945-964), knyaz **Igor**ning rafiqasi. Igor halok bo‘lganidan so‘ng, **Svyatoslav** balog‘atga yetgunga qadar Kiyev knyazligini boshqargan.

U Rus mavqeyini harbiy yurishlar, istilolar bilan emas, ***mohirona diplomatiya*** orqali yuksaltirishga intilgan.

Olga *X asrning 50-yillari o‘rtalarida* Konstantinopolga tashrif buyurib, ***xristianlikni qabul qiladi***. Lekin, Olganing o‘g‘li Svyatoslav yangi dinni qabul qilishdan bosh tortadi.

>SVYATOSLAV – Kiyev Rusi knyazi (X asr), knyaz **Igor** (912-945) ning o‘g‘li, onasi **Olga**dan (945-964) so‘ng *22 yoshida* knyazlik taxtiga o‘tirgan. Olga xristian dinini qabul qilganida u bu dinga o‘tishdan bosh tortgan edi.

Taxtga o‘tirgach, ***Sharqqa yurish*** boshlagan. Svyatoslav Itil (Volga) va Don daryolari oralig‘ida tashkil topgan ***Xazar xoqonligini*** mag‘lub etib, uning poytaxti Itil shahrini egallagan. Keyinchalik Svyatoslav ***Bolgariyaga***, ko‘chmanchi ***bijanaklarga***, ***Vizantiyaga*** qarshi urushlar olib borgan.

Uning vafotidan so‘ng boshlangan toj-u taxt uchun kurashda **Vladimir** g‘olib chiqib taxtga o‘tirgan.

>VLADIMIR – Kiyev Rusi knyazi (980–1015). **Svyatoslav**ning vorislari orasidagi kurashda g‘olib chiqib, knyazlik taxtiga o‘tirgan.

Vladimir davrida amalga oshirilgan ishlar:

1) dastlab slavyan qabilalarining ***isyoni*** bostirilib, Kiyev Rusi chegaralarida yangi ***mudofaa qal’alarini*** qurildi.

2) Dunay bo‘ylarida yashagan ***bulg‘orlarga*** qarshi harbiy yurish uyushtirildi;

3) 988-yilda ruslar ***xristian diniga*** o‘tdi;

4) Kiyevda xristian ruhoniylari tayyorlaydigan ***o‘quv yurti*** tashkil etildi;
5) ***mahalliy knyazlar sulolalari tugatildi*** va ularning o‘rniga Vladimirning ***o‘g‘illarini*** noiblikka tayinlandi.

Vladimirning katta o‘g‘li Novgorod noibi **Yaroslav** Kiyevga boj to‘lashdan bosh tortgan. Buyuk knyaz Vladimir unga qarshi yurishga tayyorgarlik paytida vafot etgan.

>SVYATOPOLK – Kiyev knyazi. 1097-yilda Kiyev knyazi Yaroslav Donishmandning o‘g‘li **Vladimir Monomax**ning Lyubech shahrida knyazlaming birinchi syezdini chaqiriganida Kiyev knyazi Svyatopolk edi.

>YAROSLAV DONISHMAND – Kiyev knyazi (1019–1054), ungacha **Novgorod** knyazi. Kiyev knyazi **Vladimir**ning katta o‘g‘li. Vorisi **Vladimir Monomax**.

Kiyevga ***boj to‘lashdan bosh tortgan***. Shu sababli knyaz Vladimir unga qarshi hujumga tayyorgarlik ko‘radi, ammo uning vafot etishi tufayli bu yurish amalga oshmay qolgan.

Yaroslav boshqaruvi davrida:
1) Kiyev Rusi ***gullab-yashnagan***;
2) ***bijanak*** qabilalari ***uzil-kesil*** mag‘lub etilgan;
3) bijanaklar ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga ***Kiyevda avliyo Sofiya*** ibodatxonasi qurilgan;
4) Novgorodda ***uch yuz ruhoniy*** tayyorlaydigan *bilim yurti* ochilgan;
5) Avval **Kiyevda**, so‘ng **Novgorodda** ***yilnomalar*** tuzila boshlangan;
6) Rusning ***Yevropa mamlakatlari bilan*** munosabatlari rivojlangan;
7) rus yerlarining dastlabki yozma qonunlari to‘plami – ***«Rus haqiqati»*** tuzilgan.

>VLADIMIR MONAMAX – Kiyev Rusi knyazi (1113–1125). **Yaroslav Donishmand**ning o‘g‘li, Buyuk Knyaz **Vladimir**ning nabirasi.

Ilk bor qipchoq xonlari qo‘shinini yenggan. Uning davrida urushlar qipchoqlar yashaydigan hududlarga ko‘chgan.

1097-yilda Lyubech shahrida ***knyazlarning birinchi syezdini*** chaqirgan. Syezd, asosan, o‘zaro urushlarga chek qo‘yishga mo‘ljallangan. Syezdning “har kim o‘z yeriga egalik qilsin”, degan muhim qarori o‘zga knyazliklarga qarshi bosqinlarini to‘xtatishni ko‘zda tutgan edi.

O‘sha vaqtda Kiyev Rusi knyazi **Svyatopolk** bo‘lgan.

Vladimir Monomaxning vafotidan so‘ng Kiyev Rusi siyosiy tarqoqlik bosqichiga kirgan.

Uning avlodlari Novgorod knyazligini 1136-yilgacha, nabirasi **Vsevolod Mstislavich** davriga qadar boshqarishgan.

>YURIY DOLGORUKIY – Vladimir knyazi (XII asr), Kiyev Rusi knyazi **Vladimir Monomax**ning o‘g‘li.

XII asrda ***Volga*** *va* ***Oka*** *daryolari havzasidagi yerlarni* boshqargan.

Knyazlikda ***Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir*** shaharlariga asos solgan.

1147-yilda ***Kiyev ustidan g‘alaba*** qozongan. G‘alaba sharafiga ***Kuchkova*** qo‘rg‘oni (keyinchalik ***Moskva*** nomini olgan)ga asos solingan.

Yuriy Dolgorukiyning avlodlari Vladimir knyazligini Ivan Grozniyga – XVI asr o‘rtalariga qadar boshqarganlar.

Moskva shahrida unga haykal o‘rnatilgan.

>VSEVOLOD MSTISLAVICH – **Novgorod** knyazi, Kiyev Rusi knyazi **Vladimir Monomax**ning nabirasi.

1136-yilda novgorodliklar vechesi uni ***knyazlik taxtidan chetlatib, zindonga*** tashlashga qaror qiladi. Xuddi shu vaqtdan shahar uzil-kesil feodal respublikasiga aylangan.

>YAROSLAV – **Vladimir** knyazi (XIII asr). Mo‘g‘ullar bilan tinchlik siyosatini boshlab bergan rus knyazi. **Aleksandr Yaroslavich Nevskiy**ning otasi.

Botuxon bo‘ysundirilgan aholidan soliq va to‘lovlarni tezroq to‘play boshlash uchun uni ***«knyazlar oqsoqolligi»ga*** tayinlab, Vladimir knyazligini boshqarish yorlig‘ini bergan.

>ALEKSANDR YAROSLAVICH NEVSKIY – **Novgorod** knyazi (XIII asr), keyinchalik **Vladimir** knyazi (XIII asr). Vladimir knyazi **Yaroslav**ning o‘g‘li.

1240-yilda ***shvedlar*** Novgorod yerlariga bostirib kirganida Novgorod knyazi Aleksandr Yaroslavich *1240-yilning 15-iyulida* ***Neva daryosi sohilida*** shvedlar ustidan g‘alaba qozongan. Bu g‘alaba sharafiga unga *Nevskiy* nomi berilgan.

1240-yilda nemislar qo‘shini Pskovni egallab, qishda Novgorod chegaralariga yaqinlashgan. Bu sharoitda Novgorod himoyasiga yana Aleksandr Nevskiy boshchilik qilgan. **Knyaz Suzdal** qo‘shinlari ko‘magida Pskovni ozod qilgan. *1242-yilning aprelida Chud ko‘lidagi* hal qiluvchi tarixga ***«Muz ustida jang»*** nomi bilan kirgan muhorabada ***nemislar*** ustidan g‘alaba qozongan.

Aleksandr Nevskiyning otasi Yaroslav Oltin O‘rda bilan tinchlik siyosatini boshlab bergan bo‘lsa, u Vladimir knyazi bo‘lganidan so‘ng bu siyosatni davom ettirgan. Knyaz Aleksandr ***Oltin O‘rdaga bir necha bor tashrif buyurgan***. ***Mo‘g‘ulistonda*** ham bo‘lib mahalliy amaldorlarning hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Bu tadbirlarning barchasi keyinchalik ***mo‘g‘ullar bosqoqlarni tasdiqlamasdan*** rus yerlaridan boj yig‘ishni knyazlardan biriga topshirishiga olib kelgan.

>IVAN KALITA – **Moskva** knyazi (1325–1340). Oltin O‘rda xoni yorlig‘iga binoan ***Rus yerlaridan soliq yig‘ish*** masalasida *Tver knyazi* bilan kurash olib borib, bu kurashda uzil-kesil g‘olib chiqqan.

>DMITRIY IVANOVICH DONSKOY – **Moskva** knyazi. *1378-yilda* Voje daryosi bo‘yida ***mo‘g‘ullarga qarshi kurashda rus knyazlari orasida dastlabki g‘alabaga*** erishgan.

Don daryosi sohilidagi ***Kulikovo maydonida*** knyaz Dmitriy qo‘shinlari *1380-yilning sentabrida* Oltin O‘rda tumanboshisi **Mamay** boshchiligidagi qo‘shin ustidan yana bir g‘alaba qozonadi. Bu g‘alaba sharafiga Moskva knyazi Donskoy faxriy nomini oladi. Ammo oradan ikki yil o‘tib To‘xtamishxon yana Moskva ustidan hukmronligini o‘matib, rus knyazlarini boj-yasoq to‘lashga majbur etadi.

>IVAN III – **Moskva** knyazi. *1480-yilda* Oltin O‘rdaga ***boj-yasoq to‘lashdan bosh tortgan***. Shu tariqa uning davrida Rus yerlarida Oltin O‘rda hukmronligiga chek qo‘yilgan.

>MO‘G‘UL HUKMDORLAR

Mo‘g‘ul hukmdorlari	Davri	Zamondoshlar **(yozib chiqing)**
Chingizxon	XIII	
O‘qtoy		
Chig‘atoy		
Jo‘ji		
Tuli		
Botuxon		
Berkaxon		
Munke		
Xuloku		
Xubilay		
O‘zbekxon	XIV	
Jonibek		
Kebek		
Tug‘luq Temur		
To‘xtamishxon		

>CHINGIZXON (1155–1227) – Mo‘g‘ul imperiyasi asoschisi, ulug‘ xoqoni (1206–1227)

>O‘QTOY – Mo‘g‘ullarning ulug‘ xoqoni (1227–1243), **Chingizxon**ning o‘g‘li va vorisi.

1224-yilda Chingizxon zabt etilgan hududlarni o‘z o‘g‘illariga taqsimlab bergach, o‘z ulusini boshqara boshlagan. *1227-yilda* Chingizxon vafotidan so‘ng Mo‘g‘ulistonning ulug‘ xoqoni bo‘lgan.

Uning davrida mo‘g‘ullarning ashaddiy dushmani – **Jaloliddin Manguberdi** (1220–1231) ning o‘limi bilan Xorazmshohlar sulolasi barham topgan.

1231-yilda mo‘g‘ul qo‘shinlari Koryo qirolligini bosib olgan.

Mahmud Yalavoch Movarounnahr noibligidan chetlatilgach (1238), O‘qtoy uni ***Pekin*** shahriga hokim etib tayinlagan.

>CHIG‘ATOY – Chig‘atoy ulusi hukmdori, Chingizxonning o‘g‘li.

1224-yilda Chingizxon tomonidan Chig‘atoy tasarrufiga berilgan *Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda* ***Chig‘atoy ulusi*** tashkil topdi.

Chig‘atoyxonning ulusni boshqaradigan o‘rdasi ***Elsuvi (Ili)*** daryosi bo‘yida edi.

Viloyatlar va hunarmandchilik shaharlarini boshqarishda Chig‘atoy o‘ziga bo‘ysundirilgan xalqlarning *yuqori tabaqa vakillari* xizmatidan foydalanadi.

Chig‘atoy ulusining Movarounnahr qismini xorazmlik **Mahmud Yalavoch** boshqargan. U soliqlarni tartibga solish islohotida *1238-yilda* Mahmud Yalavochni noiblikdan chetlatishga majbur bo‘lgan va uning o‘g‘li **Ma’sud Yalavoch**ni noib etib tayinlagan.

>JO‘JI – Chingizxonning o‘g‘li. Oltin O‘rdaga asos solgan Botuxon hamda Berkaning otasi.

>TULI – Chingizxonning o‘g‘li.

>BOTUXON – 1240-yilda Jo‘ji ulusining Oltin O‘rda xonligiga asos solgan. Jo‘jixonning o‘g‘li, Chingizxonning nabirasi.

Mo‘g‘ullarning *1235-yilda* mo‘g‘ullarning bo‘lib o‘tgan qurultoyi Rus va Shimoliy Kavkaz yerlarini bosib olish haqida qaror chiqaradi. To‘planadigan qo‘shinga Botuxon yetakchilik qilishi e’lon qilinadi. Uluslardan o‘nta askardan bittasining ajratilishi, Botuxonga yordamga Chingizxonning sarkardalaridan **Subutoy Bahodir**ning berilishiga kelishiladi.

Botu va Subutoylar *1237-yilning kuzida* rus yerlariga hujum boshlab, dastlab ***Ryazanni*** bosib olishadi.

Rusdagi siosiy tarqoqlik mo‘g‘ullarga qarshilik ko‘rsatish imkoni bermaydi. Chunonchi, Botuxon bosqini arafasida Rusda mustaqil knyazliklar soni 50 taga yetgan edi.

Mo‘g‘ullar *1238–1240-yillarda Vladimir, Suzdal, Galich, Volin, Kiyev* (1240) egallaydi.

Botuxon bo‘ysundirilgan ruslardan soliq va to‘lovlarni tezroq to‘play boshlash uchun **Yaroslav**ni ***«knyazlar oqsoqolligi»***ga tayinlab, unga Vladimir knyazligini boshqarish yorlig‘ini beradi.

Botuxonning Sharqiy Yevropadagi istilochilik urushlari *1237-yildan 1242-yilgacha* davom etadi. Jumladan, keyingi yurishlar davomida ***Polsha,*** *qisman* ***Serbiya*** *va* ***Bolgariya*** istilo qilinadi.

1243-yilda **O‘qtoy**ning vafot etishi munosabati bilan Botuxon Volgabo‘yi dashtlariga qaytadi.

U *1240-yilda* ***Xorazm, Shimoliy Kavkaz, Volga bulg‘orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim va G‘arbiy Sibir*** *(Shimoliy Kavkaz, Volgabo‘yi, Shimoliy Qora dengiz sohillari, Moldaviya – 7-sinf «Jahon tarixi»)* hududlarini o‘z ichiga olgan ***Oltin O‘rda*** xonligiga asos soladi. Davlat poytaxti *Saroy* shahri bo‘lib Botuxon davrida Saroy Botu deyilgan. Jo‘ji ulusining Oltin O‘rda xonligini Botuxon va uning avlodlari boshqarishgan.

U Oltin O‘rdani boshqarayotgan davrda Mo‘g‘ulistonning ulug‘ xoqoni **Munke** edi.

Botuxon 1255-yilda vafot etgan.

>BERKAXON – Oltin O‘rda xoni (?–1266). **Jo‘jixon**ning o‘g‘li, **Chingizxon**ning nabirasi. 1266-yilda Xuloku ulusiga qarshi kurashda halok bo‘lgan.

>MUNKE – Mo‘g‘ulistonning ulug‘ xoqoni (XIII asr). U ***soliq*** va ***hashar*** ishlarini tartibga solish to‘g‘risida maxsus farmon – yorliq chiqaradi.

- Yomlar bo‘ylab pochta xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etiladi.
- Elchilarga, qo‘llarida bevosita topshiriqlari bo‘lmasa, shahar yoki qishloqlarga kirmasligi va aholidan ular uchun belgilanadigan ortiqcha yem-xashak hamda oziq-ovqat olmasligi uqtiriladi.

Shu tariqa aholi o‘zboshimchalik bilan yig‘ib olinadigan hisobsiz to‘lovlardan ozod bo‘ladi.

>XULOKU – Eronda mustaqil davlat tuzgan mo‘g‘ul xoni (XIII asr). 1258-yilda Bag‘dodni egallab, Arab xalifaligiga barham bergan. Kavkazortiga egalik qilish masalasida Oltin O‘rdaga qarshi kurash olib borgan.

>XUBILAY – Xitoydagi mo‘g‘ullarning yuan sulolasi asoschisi (1279-?). Dastlab Xitoyning shimolidagi mo‘g‘ullar davlatida hukmronlik qilgan. 1279-yilda Sun sulolasini ag‘darib, yuan sulolasiga asos solgan. Uning saroyida venetsiyalik savdogar **Marko Polo** 25 yillik sayohati (1271-1295) ning 17 yilini o‘tkazgan.

>O‘ZBEKXON – Oltin O‘rda xoni (1312–1342). O‘zbekxon va uning o‘g‘li Jonibek (1342–1357) davrida davlat o‘z qudratining cho‘qqisiga erishgan. O‘zbekxon *1314-yilda* ***islomni*** davlat dini deb e’lon qiladi. Unga qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘lgan zodagonlar va, hatto, qarindoshlarini ham qirib tashlaydi.

>JONIBEK – Oltin O‘rda xoni (1342–1357). Oltin O‘rda xoni **O‘zbekxon**ning (1312-1342) o‘g‘li. U va otasining davrida davlat o‘z qudratining cho‘qqisiga erishgan.

Jonibek Oltin O‘rdani boshqarayotgan davrida to‘rt ulusdan biri – Chig‘atoy ulusi ikkiga bo‘linib ketgan (1340-yillarda, Mo‘g‘uliston va Movarounnahrga). Uning hukmronligi davridan bir necha yil o‘tib **Tug‘luq Temur** Mo‘g‘uliston xoni etib ko‘tarilgan (1348).

>KEBEK – Chig‘atoy xoni (1318–1326).

U Movarounnahr mustahkam aloqa o‘rnatishga va o‘troq hayot kechirishga intilgan. Shuning uchun ham Qashqadaryo vohasidagi qadimgi Nasaf shahri yonida o‘ziga saroy qurdiradi. Saroy mo‘g‘ul tilida “Qarshi” deb yuritiladi. Kebekxon o‘z qarorgohini ***mo‘g‘ul hukmdorlari orasida birinchi bo‘lib Movarounnahrga ko‘chiradi***.

Kebek davlatni idora etish tuzilishini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida ***ma’muriy*** va ***pul*** islohoti o‘tkazadi.

Mamlakatda yagona pul joriy qilinadi. Erondagi *Xulokiylar davlati* va *Oltin O‘rda* xonligining kumush tangalari namunasida ikki xil pul: og‘irligi 8 grammlik katta kumush tanga va 1 grammlik kichik tanga zarb etilgan. Katta tanga “dinor”, kichigi “dirham” deb atalgan. “Kepaki” deb nom olgan bu tangalar *Samarqand* va *Buxoroda* zarb etilib, muomalaga chiqarilgan.

U Chig‘atoy xonligini boshqarayotgan davrda Jo‘ji ulusining Oltin O‘rda xonligini **O‘zbekxon** idora etar edi.

>TUG‘LUQ TEMUR – Mog‘uliston xoni (1348-?), Chig‘atoy naslidan.

XIV asrning 40-yillarida Chig‘atoy ulusi ikkiga bo‘linib ketgan. Ulusning Sharqiy Turkiston va Yettisuv qismi Mo‘g‘uliston deb atala boshlangan. 1348-yilda Tug‘luq Temur Mo‘g‘uliston xoni etib ko‘tarilgan. Ulusning g‘arbiy qismi – Movarounnahr mustaqil idora qilinadigan bo‘lgan.

U 1360–1361-yillarda Movarounnahrga birin-ketin ikki marta bostirib kirgan. Oqibatda Amir Temurning amakisi – Kesh viloyatining hukmdori **Amir Hoji Barlos** Xuroson tomonga qochgan. 24 yoshli **Amir Temur** Tug‘luq Temurning huzuriga borib, uning yorlig‘i bilan Kesh viloyatining dorug‘asi etib tayinlangan.

U o‘g‘li **Ilyosxo‘ja**ni Movarounnahrning hukmdori etib tayinlab, Mo‘g‘ulistonga qaytib ketgan.

>TO‘XTAMISHXON – Oltin O‘rda xoni (XIV asr). **Jonibek**ning vafotidan so‘ng Oltin O‘rda taxti uchun kurash boshlangan. To‘xtamish **Amir Temur** yordamida XIV asr oxirida mamlakatni 15 yilga yana birlashtirgan.

1382-yilda ***Moskva*** ustidan hukmronligini o‘rnatib, rus knyazlarini boj-yasoq to‘lashga majbur etgan.

Lekin davlat tarixining fojiali sahifalari aynan uning hukmdorligi bilan bog‘liqdir. Bunga To‘xtamishning *Movarounnahr hukmdori Amir Temur bilan raqobati* sabab bo‘ladi. To‘xtamishxon *Misr, Iroq va Turkiya* bilan harbiy ittifoq tuzib, Amir Temurga zarba bermoqchi bo‘ldi. *1384-yilda* To‘xtamishxonning elchisi Misr sultoni **Barquq** bilan uchrashuvda Amir Temurni yo‘q qilish taklifini kiritadi. Bunday taklifga shu yili Misrga kelgan *Turkiya va Sivas* mamlakatlari elchilari Amir Temurga qarshi bo‘lgan harbiy ittifoqqa qo‘shilishini aytdilar. Turkiya, Misr va Oltin O‘rdaning o‘zaro yaqinlashuvi Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tug‘dirardi. Amir Temur To‘xtamishga qarshi ***uch marta*** qo‘shin tortishga majbur bo‘ladi.

1391-yilda ***Qunduzcha*** jangida Oltin O‘rda Amir Temurga mag‘lub bo‘ladi.

So‘nggi jang *1395-yilning 15-aprelida* ***Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi*** bo‘yida sodir bo‘ldi. Jangda Amir Temur qo‘shini dushmanga qarshi o*tdan tushib, uni kamondan o‘qqa tutish* usulini qo‘lladi. To‘xtamish sanoqligina askari bilan qochib changalzorga kirdi va ta’qib etib kelayotgan askarlardan bekindi.

To‘xtamishning Amir Temurdan bu mag‘lubiyati Saroy, Saroy Berka, Astraxan shaharlarining vayron etilishiga sabab bo‘ladi. Shundan keyin *savdo yo‘llari janub tomonga* siljiydi

Rossiya tarixchilari *B.D.Grekov* va *A.Y.Yakubovskiy*larning ta’kidlashicha, Amir Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi faqat O‘rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, Rus knyazliklarining birlashishlari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

>VIZANTIYA HUKMDORLARI

Hukmdorlar	Davri	Zamondoshlar **(yozib chiqing)**
Yustin Yustinian I	VI	
Roman IV Diogen Aleksey I	XI	
Isaak II Angel	XII	
Mixail VIII Paleolog	XIII	

>YUSTIN – Vizantiya imperatori. U kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilib, oddiy askarlikdan, sarkarda darajasigacha ko‘tarilib, imperatorlik taxtini egallaydi. Yustin jiyani Yustinianni saroyga yaqinlashtirib, unga yaxshi ta’lim berdiradi. Amakisining vafotidan so‘ng Yustinian taxtga o‘tiradi.

>YUSTINIAN I – Vizantiya imperatori (527–565), Yustinning vorisi.

*U namlakat hayotini **islohotlar orqali** ancha yangilaydi, **xalqaro savdoni** jonlantirib, **davlat xazinasini** to‘ldiribgina qolmasdan, **xalq farovonligini** ham*

ta’minlaydi. Yustinian I siymosida harakatchanlik, qat’iyat bilan bir qatorda siyosatdonlarga xos ikkiyuzlamachilik, mug‘ombirlik, zolimlik xususiyatlari ham mujassamlashgan.

Yustinianning rafiqasi malika **Feodora** *ham o‘z davrida mashhur bo‘lgan. Yoshligida Feodora aktrisa bo‘lgan. U davrda aktyorlik e’zozli kasb hisoblanmasa-da, Feodoraning chiroyiga mahliyo bo‘lgan Yustinian I jamoatchilikning salbiy fikriga qaramasdan unga uylangan (Feodora aqli, shuhratparastligi, qo‘rqmasligi bilan ajralib turgan).*

Yustinian I ning maqsadi ***Rim imperiyasining avvalgi hududlarini tiklash*** edi.

✪ 534-yilda sarkarda **Velisariy**ni *Shimoliy Afrikada* davlat tuzgan va O‘rta dengizda qaroqchilik bilan shug‘ullanayotgan ***vandallarga*** qarshi yuboradi. Vizantiyaliklar vandallar qirolligini bo‘ysundirib, Shimoliy Afrikani Vizantiya viloyatiga aylantiradilar.

✪ Shundan so‘ng Velisariy ***Italiyaga*** yo‘l oladi. Vizantiyaliklar *Sitsiliya orolini* qiyinchiliksiz qo‘lga kiritadilar. Lekin Italiyada ular ostgotlarning qattiq qarshiligiga uchraydi. Velisariyga qarshi kurashda ***ostgotlar*** qochoq qullarga ozodlik berib, ulardan foydalanishgan. Vizantiyaliklar esa aksincha, qulchilikni tiklashgan, har qanday aybi uchun qulni qattiq jazolashgan. Shunga qaramasdan, vizantiyaliklar Italiyaning katta qismini bo‘ysundirib, poytaxti ***Ravenna*** bo‘lgan alohida noiblik tuzishadi.

✪ Italiyadagi urush so‘ngida Yustinian I ***Ispaniyaga*** ham qo‘shin yuboradi. Ispaniyada ***vestgotlar*** hukmronlik qilaredi. Vestgotlar qo‘shinini qiyinchiliksiz yenggan Vizantiya janubiy viloyatlarni egallab, ***Gibraltar bo‘g‘ozi*** ustidan nazorat o‘rnatadi.

Uning davrida *Konstantinopolda* bunyod etilgan ***avliyo Sofiya ibodatxonasini*** *o‘rta asrlarning eng mahobatli inshooti* deb atash mumkin. Uning ulkan gumbazi *40 ta deraza gulchambari* bilan qurshalgan. Turli xil toshlar va oyna parchalaridan yasalgan juda ajoyib mozaikalar ibodatxona devorlarini bezagan.

>ROMAN IV DIOGEN – Vizantiya imperatori. 1071-yilda Saljuqiylar sultoni **Alp Arslon** bilan bo‘lgan ***Manskikert jangida*** mag‘lub bo‘lib, asir tushgan.

>ALEKSEY I – Vizantiya imperatori. Aleksey I papa **Urban II** bilan kelishmasa-da, xristianlar dushmanlari bilan kurashish uchun G‘arbga murojaat qilib, ularni ***salib yurishlariga*** jangchilar yuborishini so‘ragan. Konstantinopolda 1096-yilning kuzidan to‘plana boshlagan ritsarlarga imperator vassallik qasamyodini qabul qildirgan. Unga ko‘ra, *Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyosiy qaram* bo‘lishi lozim edi.

>ISAAK II ANGEL – Vizantiya imperatori. Ukasi tomonidan taxtdan tushirilib, ko‘ziga mil tortilgan. Bu voqea to‘rtinchi salib yurishlari boshlanishiga bahona bo‘lgan.

>MIXAIL VIII PALEOLOG – Vizantiya imperatori (1261–?), ungacha *Nikeya* imperatori. 1261-yilning 15-avgustida Konstantinopol egallab, ***Vizantiya imperiyasini qayta tiklagan.***

>TURKIYA HUKMDORLARI

Hukmdorlar	davri	Zamondoshlar **(yozib chiqing)**
Usmon I	XIII	
O‘rxon	XIV	
Boyazid		
Mexmet II	XV	

>USMON I – Usmonlilar davlati asoschisi (1299–1326). ***Bursa*** shahrini bosib olgan. Usmon hamda uning o‘g‘li va vorisi **O‘rxon**ga bey unvoni ***qabila boshliqlari yig‘inida*** berilgan.

>O‘RXON – Usmonlilar hukmdori (XIV asr), sulola asoschisi **Usmon I** ning o‘g‘li va vorisi. Usmon I va O‘rxonga ***bey unvoni qabila boshliqlari yig‘inida*** berilgan.

O‘rxon davrida:

1) *Vizantiya shaharlari* ***Nikeya va Nikomediyalar*** bosib olinib, ***Qora dengiz sohiliga*** chiqiladi;
2) ilk bor ***vazir*** lavozimi ta’sis etiladi;
3) ***tanga pul*** zarb qilinadi;
4) davlat yerlari ***ma’muriy birliklarga*** bo‘linadi;
5) ***harbiy islohot*** o‘tkazilib qo‘shin piyoda va otliq qismlarga (“musallam”), alohida harbiy birliklarga aylantiriladi.

>BOYAZID YILDIRIM – Usmonli Turkiya sultoni (1389–1402). Bolqon davlatlariga qarshi olib borgan tezkor g‘olibona urushlari tufayli Yildirim nomini olgan.

Undan yengilib, o‘z yer-mulkidan mahrum bo‘lgan Kichik Osiyo hukmdorlari **Amir Temur**dan madad istab, uning Qorabog‘dagi o‘rdagohidan panoh topganlar. Boyazidning ***Konstantinopolni qamal qilishi*** Yevropani sarosimaga solib qo‘ygan.

Ammo, Boyazid Yildirimning qoraqo‘yunlar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi oqibatida Sharqning ikki buyuk hukmdori o‘rtasida boshlangan va bu kurashda Boyazidning yengilishi Konstantinopolning olinishiga yo‘l qo‘ymay, Vizantiyaning yana 50 yil yashashiga imkon yaratgan.

1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida, Chubuq mavzeyida Boyazid boshchiligidagi 160 ming kishilik lashkar va Amir Temur qo‘shinlari o‘rtasida tarixga ***«Anqara jangi»*** nomi bilan kirgan muhoraba bo‘lib o‘tgan. Bu jangda Boyazid yengilib, Amir Temurga asir tushgan.

>MEXMET II – Usmonlilar sultoni (XV asr). ***100 ming kishilik*** qo‘shini bilan ***Konstantinopolni zabt etgan*** va *Vizantiya davlatiga barham bergan. Vizantiyaning so‘nggi imperatori* ham Mehmet II qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgan.

>HINDISTON HUKMDORLARI

Hukmdorlar	Davr	Zamondoshlar **(yozib chiqing)**
Chandragupta I	IV	
Qutbiddin Oyboq	XIII	
Eltutmish		
Alouddin Xiljiy		
Muhammad Tug‘luq	XIV	
Feruzshoh Tug‘luq		
Mahmud		
Bahlul Lo‘diy	XV	
Ibrohim Lo‘diy	XVI	

>CHANDRAGUPTA I – Hindistondagi guptalar sulolasi asoschisi. Kushonlar imperiyasining inqirozidan so‘ng 320-yilda Hindistonda hokimiyatni egallagan. 340-yilgacha davlatni boshqargan.

>QUTBIDDIN OYBOQ – Dehli sultonligi asoschisi (1206–1211). Vorisi Shamsiddin Eltutmish.

>SHAMSIDDIN ELTUTMISH – Dehli sultoni (1211–1236), Qutbiddin Oyboqning vorisi. Uning hukmronligi davrida:
1) [1]**Panjob,** [2]**Sind** va [3]**Bengaliyalar** bo‘ysundirilgan;
2) *Shimoliy Hindistonni* **Jaloliddin Manguberdi** egallab, hukmronlik qila boshlagan. Eltutmish dastlab Jaloliddinga ochiqdan ochiq kurashishga botina olmagan. Shuning uchun ham unga maktub yo‘llab, xatda ***“sen musulmonlarning sultonisan”*** deya Jaloliddinni e’tirof etgan.

Ammo, Eltutmishning maqsadi keyinchalik ayon bo‘lgan. U Jaloliddinning sarkardalari **Yazidak pahlavon** va **Sunqurjiq**ni o‘z tomoniga og‘dirib olgan.

Eltutmish vafotidan so‘ng toj-u taxt uchun kurash boshlanib ketgan. Bu kurashlarda **Alouddin Xiljiy** g‘olib chiqib, taxtni egallagan.

>ALOUDDIN XILJIY – Dehli sultoni (XIII asr). Eltutmish (1211-1236) vafotidan so‘ng boshlangan toj-u taxt uchun kurashda g‘olib chiqib, taxtga o‘tirgan.

Alouddin Xiljiy islohotlar o‘tkazib, *davlat* ***xazinasi daromadlarini*** *ko‘paytirgan.* ***Kuchli qo‘shin*** tuzib, *o‘zboshimcha feodallarni* bo‘ysundirgan. Bu davlat vaqtinchalik bo‘lsa-da o‘zining avvalgi qudratini tiklashga yordam bergan.

Dehli sultonligining kuchli va intizomli qo‘shini bo‘lishi shimoldan *mo‘g‘ullar* hujumlarini qaytarish imkonini bergan.

MUHAMMAD TUG‘LUQ – Dehli sultoni (1325–?), Alouddin Xiljiyning o‘g‘li va vorisi.

U o‘z hukmdorligini otasi paytida *mustaqillik yo‘lini tutgan knyazliklarni* bo‘ysundirishdan boshlaydi. O‘zini *“Iskandar Zulqarnaynning davomchisi”* deb nomlagan sulton davrida **1)** ***Hindiston yarimoroli to‘liq birlashtirildi.*** Sultonning **2)** ***soliq islohoti*** yuz bergan *qurg‘oqchilik* tufayli muvaffaqiyatsiz tugadi. Tug‘luqning oltin va kumush pullar bilan teng muomalada bo‘lishi mo‘ljallangan

3) ***mis tangalarini*** zarb qildirishi uni ko‘p o‘tmay qadrsizlanib ketishga, har ikki islohotning natijasiz tugashiga olib keladi.

Keyingi hukmdor Feruzshoh Tug‘luq.

>FERUZSHOH TUG‘LUQ – Dehli sultoni. Uning davrida **1)** ***soliqlar kamaytirilib***, **2)** ***davlat yerlari dehqonlarga ijaraga*** bo‘lib beriladi.

Uning boshqaruvi paytida qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilikning yuksalishi, oqilona boshqaruvi sultonga ***xalq homiysi*** sifatida shuhrat keltiradi. XIV asrda boshlangan siyosiy tarqoqlik davrida, ayrim knyazlarning mustaqillikka intilish jarayoni kuchayib boradi.

>MAHMUD – Dehli sultoni (XIV asr). 1398–1399-yillarda **Amir Temur** qo‘shinlariga qarshi kurashib, mag‘lub bo‘ladi. Shundan so‘ng Amir Temur Dehlini zabt etib, u yerdan Samarqandga ko‘plab hind hunarmandlari, me’morlarini olib qaytgan.

>BAHLUL LO‘DIY – Dehli sultoni (1451–1489-yillar). Dehli sultonligidagi ***lo‘diylar sulolasi asoschisi***. *Afg‘on* qabilalari sardori. Sayyidlar sulolasini (1414–1451-yillar) taxtdan qulatgan.

>IBROHIM LO‘DIY – Dehli sultonligining oxirgi hukmdori (?–1526). 1526-yil 21-aprelda **Bobur** qo‘shiniga qarshi bo‘lgan ***Panipat jangida*** mag‘lubiyatga uchrab, halok bo‘lgan.

>XITOY HUKMDORLARI

Hukmdorlar	Asr	Zamondoshlar
Li Yuan	VII	
Xubilay	XIII	
Chju Yuan Chjan	XIV	

>LI YUAN – Xitoydagi **Tan** sulolasi (618–907) asoschisi. Xitoyning shimoli-g ‘arbidagi mahalliy hokimlardan biri bo‘lgan Li Yuan 618-yilda Suy sulolasini (589-618) ag‘darib, taxtni egallaydi.

>XUBILAY – Xitoydagi **yuan** sulolasi asoschisi (1279–?) (batafsil: “mo‘g‘ul hukmdorlar” mavzusiga qarang).

>CHJU YUAN CHJAN – Xitoydagi **Min** imperiyasi asoschisi (1368). Asli *rohib* bo‘lgan Yuan Chjan *mo‘g‘ullarning* ***Yuan sulolasiga qarshi*** 1351-yilda *Xenan va Shandun* viloyatlarida ko‘tarilgan dehqonlar qo‘zg‘oloni rahbarlik qilgan. U 1368-yilda Xitoyni mo‘g‘ullardan ozod etib, Min imperiyasiga asos soldi.

Yuan Chjan qo‘shinlari mo‘g‘ullarni ta’qib etib, ularning poytaxti *Qoraqurumni* egallab, yondirib yuboradi. Shu tariqa mo‘g‘ullarning Xitoyga hujumlariga chek qo‘yiladi. Bunda xitoyliklarga o‘q-dori (porox) va zambaraklardan keng foydalanish qo‘l keladi.

>YAPONIYA HUKMDORLARI

Hukmdorlar	Davri	Zamondoshlari **(yozib chiqing)**
MINAMOTO	XII	

>MINAMOTO – Yaponiyaning birinchi syoguni. XII asr oxirida imperator poytaxti Kiotoni qo‘lga kiritadi. Lekin u davlatni o‘zining Kamakuradagi saroyidan turib boshqaradi. Shu tariqa Yaponiyada qo‘sh hokimiyatchilik paydo bo‘ladi.

>KOREYA HUKMDORLARI

Hukmdorlar	Davri	Zamondoshlari **(yozib chiqing)**
Tangun	?	
Li Son Ge	XIV	
Sechjon Buyuk	XV	

>TANGUN – **ilk koreys davlati – Choson** (koreyscha, «Tonggi taraovat») davlatining asoschisi. U *Pxenyanda* Choson qirolligiga asos solgan. Koreyslar Tangun davrini koreys xalqining tashkil topish davri deb hisoblashadi.

>LI SON GE – Koreyadagi **Li sulolasi** asoschisi. 1392-yilda *so‘nggi Koryo hukmdorini* taxtdan chetlatib, yangi Li sulolasiga asos solgan. Uning davrida mamlakat *yana Choson* nomini oladi. Davlat poytaxti *Kegyondan* ***Xanson (hozirgi Seul)***ga ko‘chiriladi.

SECHJON BUYUK – Koreya qiroli (1418–1450). Uning davrida:
1) ***soliq*** tizimida islohot o‘tkazildi, davlat boshqaruvini takomillashtirib bordi;
2) koreys madaniyati va san’ati ***gullab-yashnadi***;
3) *ilk bor milliy koreys* ***universitetiga*** asos solindi. Unda mumtoz *xitoy adabiyoti* o‘rgatilgan.
4) budda ibodatxonasi hisoblangan – ***Pulguksa*** quriladi.
5) yangi ***taqvim*** tuziladi;
6) ***yomg‘irni*** *oldindan aniqlaydigan asbob* yaratildi;
7) ***shamol*** *tezligi va yo‘nalishini belgilaydigan asbob* yaratildi;
8) *quyosh va suv* ***soatlari*** yaratildi;
9) ***yulduzlar xaritasi*** yaratildi;
10) ***koreys alifbosi*** yaratildi.

>AFRIKA DAVLATLARIDAGI HUKMDORLAR

>AKSUM

>MANELIK – Aksumning birinchi hukmdori. Rivoyatga ko‘ra, podsho Sulaymonning Arabiston malikasidan tug‘ilgan o‘g‘li bo‘lgan.

>SHOH LALIBELI – Aksum podshosi. Shoh Lalibeli *ibodatxonasi* hozirga qadar saqlanib qolgan.

>MALI

Hukmdorlar	Davri	Zamondoshlari **(yozib chiqing)**
Sundiata Keyt	XIII	
Muso I	XIV	

>SUNDIATA KEYT – Mali hukmdori (1230-1255). Uning davrida:
1) Mali o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga erishgan;
2) Kuchli qo‘shin tuzgan.
3) Bu qo‘shin yordamida karvon yo‘llari o‘tadigan hududlarni, oltin konlarini, *qadimgi Gana yerlarini* bosib oladi.

>MUSO I – Mali hukmdori (XIV asr). 1324-yilda ***Makkaga haj*** safari uyushtiradi. O‘zi bilan safarga ko‘p oltin olib yo‘lda ularni saxiylik bilan tarqatib boradi. Hukmdorga 8 ming jangchi va 500 ta qul hamroh bo‘lib, bu katta karvon 10—12 tonna oltinni o‘zi bilan olib ketgani ehtimol qilinadi. Bu voqeadan so‘ng uzoq yillar davomida arab dunyosida oltinning narxi past bo‘lgan.

>MISR

Hukmdorlar	Davri	Zamondoshlari **(yozib chiqing)**
Salohiddin Ayubiy	XII	

>SALOHIDDIN AYUBIY – Misr sultoni (XII asr). 1187-yilda salibchilardan Quddusni tortib olgan. Bu voqea uchinchi salib yurishlari (1189-1192) tashkil qilinishiga olib kelgan. Uchinchi salib yurishlarida german imperatori, Fransiya qiroli va Angliya qiroli (**Richard I Sheryurak**) qatnashgan.

>BOLQON DAVLATLARIDAGI HUKMDORLAR

Hukmdorlar	Davri	Zamondoshlari **(yozib chiqing)**
Asparux	VII-VIII	
Simeon	IX-X	
Vatslav	X	
Boleslav Jasur	?	

>ASPARUX (643–701) – Slavyanlar yashagan hududdagi ***ilk davlat Bolgariya*** podsholigi asoschisi (681–701). Turkiyzabon bulg‘orlar yetakchisi bo‘lgan Asparux 681-yilda Bolqon yarimorolida slavyanlarning ilk davlatiga asos solgan.

>SIMEON – Bolgariya hukmdori (893–927). Uning davrida Bolgariya ***o‘z qudratining cho‘qqisiga*** erishgan.

>VATSLAV – Chexiya knyazi (920–935), Chexlarning asosiy milliy avliyosi. Chex davlatining homiysi sifatida e’zozlanadi.

U Chexiyada ***xristianlik dinining yoyilishiga*** harakat qilgan. Lekin knyazning xristianlikka nisbatan bunday hurmat-ehtiromi ko‘pgina chexlarga xush kelmagan.

Ayrim knyazlar fitnasi tufayli ***tug‘ishgan ukasi*** tomonidan xoinona o‘ldirgan.

>MESHKO I – Polsha davlati asoschisi, hujjatlarda nomi qayd etilgan piastlar sulolasining birinchi knyazi.

Knyaz Meshko X asr o‘rtalarida Visla daryosi havzasida polyak qabilalarini birlashtirib, ***Polsha davlatiga asos soladi***.

U *o‘z qo‘shini bilan* ***xristianlikni qabul qilgan***. Vorisi **Boleslav Jasur**.

>BOLESLAV JASUR – Polsha davlati hukmdori, Meshko I ning o‘g‘li va vorisi.

Boleslav Jasur davrida polyak qabilalarini ***birlashtirish ishi tugallangan***.

U kuchli qo‘shin bilan [1]***Moraviya*** va [2]***Chexiyani***, qisqa muddatga [3]***Kiyevni*** ham egallagan.

Polsha mustaqilligini saqlab qolish uchun ***german imperatorlariga qarshi*** kurash olib borgan va bu urushda g‘olib chiqib, o‘z mamlakati chegarasini kengaytirishga muvaffaq bo‘lgan.

>SALJUQIY HUKMDORLAR

Sulola vakillari	Davri	Zamondoshlari **(yozib chiqing)**
Saljuqbek		
To‘g‘rulbek	XI	
Alp Arslon		
Sanjar	XII	
To‘g‘rul		

>SALJUQBEK – O‘rta Osiyodagi saljuqiylar sulolasi asoschisi, uning nevarasi To‘g‘rulbek esa Saljuqiylar davlatiga asos solgan.

>TO‘G‘RULBEK – Saljuqiylar davlati asoschisi (1038–?), Saljuqning nevarasi.

>ALP ARSLON – Saljuqiylar sultoni. 1071-yilda ***Mansikert jangida*** Vizantiya imperatori **Roman IV Diogen**ni mag‘lub etib, asirga olgan. Alp Arslonning bu g‘alabasidan keyin vizantiyaliklar deyarli ularga qarshilik ko‘rsata olmaganligi tufayli ko‘p sonli turkiy qabilalar Kichik Osiyoga yo‘l olgan.

>SANJAR – uning davrida 1153-yilda ko‘chmanchi o‘g‘uzlar isyon ko‘targan.

>TO‘G‘RUL – xorazmshoh **Takash**dan 1194-yilda mag‘lubiyatga uchib, *Eronni* xorazmshohlar davlatiga boy bergan.

BOSHQA SOHA VAKILLARI

>FRANSIYA

>EYNGARD – **Buyuk Karl**ning (768/800-814) saroy akademiyasida ijod qilgan tarixchi-rohib. Uning asarlaridan biz ***Buyuk Karl hayoti va faoliyati*** haqidagi ma’lumotlarni olamiz. Eyngardni ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi tufayli zamondoshlari ***«mehnatsevar chumoli»*** deb ataganlar.

>ALKUIN – Buyuk Karlning saroy akademiyasi a’zosi.

>ROLAND – Frank qiroli **Buyuk Karl**ning jiyani, graf. Karlning 778-yilda Arab xalifaligi istilo qilgan ***Ispaniyaga qarshi*** bo‘lgan muvaffaqiyatsiz urushida halok bo‘lgan. Keyinchalik u haqda *«Roland haqida qo‘shiq»* dostoni yaratilib, fransuz xalq og‘zaki ijodining sevimli qahramoniga aylangan.

>ROBER DE SARBON – Fransiya qiroli xonadoni ruhoniysi. XII asrda Parij universitetiga asos solgan.

>FILIPP – Fransiya shahzodasi, Fransiya qiroli **Ioann Saxiy**ning o‘g‘li. «Yuz yillik urush» (1337-1453) davrida bo‘lib o‘tgan Puate jangida (1356) otasi Ioann Saxiy bilan birga Angliya shahzodasi **Eduard**ga asir tushgan.

>GILOM KAL – Fransiyada «yuz yillik urush» ketayotgan pallada 1358-yili dehqonlar tomonidan ko‘tarilgan «Jakeriya» qo‘zg‘oloni rahbari.

Qo‘zg‘olonchilarning shiori «barcha zodagonlarni bitta ham qoldirmay qirib tashlash» bo‘lgan. Feodallar birlashib, bu qo‘zg‘olonni bostirishga erishgan. Ammo «Jakeriya» qo‘zg‘olonidan xulosa chiqarib, isyonning yana takrorlanishidan qo‘rqqan feodallar dehqonlami to‘lov evaziga shaxsiy qaramlikdan ozod etishni tezlatganlar.

>DYUGEKLAN – Fransiyada **Karl V** davrida (1360-yillar) joriy qilingan yagona qo‘mondonlikning Bosh qo‘mondoni. «Yuz yillik urush» (1337-1453) davrida yirik janglarga kirmasdan kichik janglar orqali deyarli barcha hududlarni inglizlardan ozod qilib, fransuzlarning vaqtinchalik g‘alabasini ta’minlaydi.

>JANNA D’ARK – Fransuz xalqi qahramoni. «Yuz yillik urush» (1337-1453) davrida 16 yoshli dehqon qizi Janna **Karl VII** ning huzuriga borib, uni fransuzlar g‘alabasi muqarrarligiga ishontiradi. Unga ristarlar qo‘shini beriladi. Janna Orleanni inglizlardan ozod etishga muvaffaq bo‘ladi. Shu voqeadan so‘ng Jannani «Orlean qizi» deb atay boshlaydilar.

Janna d’Arkning shuhrati oshib borishi qirol saroyi a’yonlarining hasadini kuchaytiradi. 1430-yilda Kompen qal’asi uchun janglarda Janna ***burgundlar*** tomonidan asirga olinib, inglizlarga topshinladi. Fransiya qiroli Karl VII (1422-1461) Jannani qutqarishga urinib ham ko‘rmaydi. Inkvizitsiya uni o‘limga hukm qilib, 1431-yilning 30-mayida ***Ruan*** shahri maydonida gulxanda yondiradi.

>ANNA – Fransiyasi qirolichasi. Fransiya qiroli **Karl VIII** ning (1483–1509) rafiqasi. *Bretan* gersogining qizi. Anna Karl VIII ga turmushga chiqqach, Fransiyaning markazlashuvi o‘z nihoyasiga yetgan.

>ANGLIYA

>ROJER BEKON (XIII) – Angliyaning ***Oksford*** universiteti professori. Fandagi yutuqlarga faqat ***ilmiy kuzatishlar va tajribalar yo‘li*** bilan erishish mumkinligini isbotladi. Uning o‘zi optika, fizika, kimyo fanlariga oid tajribalar o‘tkazadi. Bekon *o‘zi suzadigan kema, suv osti kemasi va havoda uchadigan apparatlar* qurish mumkinligini aytgan. Bekonning hayoti qiyinchiliklar va xavf-xatarlar ichida, cherkov ta ‘qibida o‘tgan.

>UOT TAYLER – Angliyada 1381-yilda ko‘tarilgan dehqonlari qo‘zg‘oloni rahbari. Asl kasbi tunukasoz bo‘lgan *(batafsil: Richard II).*

>JON BOL – ruhoniy, voiz, Angliyada 1381-yilning may oyida ko‘tarilgan **Uot Tayler** qo‘zg‘oloni rahbarlaridan biri *(batafsil: Richard II).*

>GERMANIYA
>IOGANN GUTTENBERG – nemis muhandisi. 1445-yilda kitob bosish dastgohini kashf etgan.

>MO‘G‘ULLAR
>SUBUTOY BAHODIR – Chingizxonning sarkardalaridan biri. Botuxon bilan birgalikda 1237-yilda rus yerlariga bostirib kirgan.

>MAMAY – Oltin O‘rda tumanboshisi. *1380-yilning sentabrida* Moskva knyazi **Dmitriy Ivanovich** bilan ***Don*** daryosi sohilida bo‘lgan jangda mag‘lub bo‘lgan. Shundan so‘ng Dmitriy Ivanovich Donskoy faxriy nomini olgan edi.

>XITOY
>SYUAN SZYAN – Xitoy tarixchisi. VII asrda Hindistonda bo‘lgan. Uning yozishicha, Hindistonda o‘sha paytda 70 ga yaqin katta-kichik knyazliklar bo‘lgan.

>CHJAN XE – Xitoydagi Min sulolasiga (1368–1644) xizmat qilgan harbiy-dengiz qo‘mondoni.

Tarkibida *62 ta kema*, *30 ming jangchisi* bo‘lgan harbiy ekspeditsiya 1405–1433-yillarda, ***Zond arxipelagi, Shri Lanka va Hindistonga 7 marta*** yurishlar tashkil qiladi. Uning kemalari *Ormuz (Fors) ko‘rfazi va Sharqiy Afrika* sohillariga qadar suzib borgan. *Musulmon* bo‘lgan Chjan Xe Makkani ziyorat qiladi. Bu ekspeditsiyalar Xitoyning mavqeyini oshirib, tashqi savdoni kengaytirish imkonini beradi.

>KOREYA
>VAN IN – Pekchelik olim. Yaponiya taxt vorisi bo‘lgan shahzodaga ustozlik qilgan.

>TURKIYA
>EVLIYA CHALABIY – turkiyalik mahshur sayyoh. ***«Sayohatnoma»*** asarining muallifi. Bu asar yevropa manbalari asosida bitilgan bo‘lib, tarixiy-etnografik manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

>MEHRI XOTUN – Usmonli Turkiya jamiyatida madaniyat ravnaq topgan davrda ijod qilgan shoira.

>MULLA MAHMUD – Usmonli Turkiya jamiyatida madaniyat ravnaq topgan davrda ijod qilgan shoir.

>PIRI RAIS – turkiyalik dengiz sayyohi. O‘rta, Qora va Egey dengizlari atlasi – «Bahriya» asarining muallifi.

>XOJA SINON – Usmonlilar davlatida xizmat qilgan, asli millati yunon bo‘lgan me’mor. O‘z faoliyati davrida 300 dan ortiq inshoot qurilishiga boshchilik qilgan.

>XOJA XALIFA – turk geografi. «Jahonnoma» asari muallifi.

>VIZANTIYA

>MAVRIKIY – Vizantiya tarixchisi. Uning yozishicha, slavyan dehqonlari boshoqli ekinlardan ko‘proq arpa va tariq ekkanlar.

>FEODORA – Vizantiya imperatori **Yustinian I** (527–565) ning rafiqasi. Yoshligida Feodora *aktrisa* bo‘lgan. U davrda aktyorlik e’zozli kasb hisoblanmasa-da, Feodoraning chiroyiga mahliyo bo‘lgan Yustinian I jamoatchilikning salbiy fikriga qaramasdan unga uylangan. Feodora aqli, shuhratparastligi, qo‘rqmasligi bilan ajralib turgan.

>VELISARIY – Vizaniya sarkardasi, **Yustinian I** davrida xizmat qilgan. Yustinian I uni Shimoliy Afrikadagi vandallarga qarshi yuborgan. Velisariy Shimoliy Afrikani egallagach, Italiyagi ostlarga qarshi yo‘l olgan. Italiyaning katta qismi bo‘ysundirgan. Bu yerda poytaxti Ravenna bo‘lgan alohida noiblik tuzilgan.

>BOSHQALAR

>TATSIT – Rim tarixchisi. «Germaniya» asari muallifi.

>EGIDIY – G‘arbiy Rim imperiyasining inqirozidan so‘ng Galliyada mustaqil knyazlik tuzgan. Egidiy bungacha rim noibi edi. Xuddi shu davrdan frank qabilalaridan biri, merovinglar sardori Xlodvigning Galliyaga hujumlari yanada kuchayadi. Bu knyazlik aynan **Xlodvig** tomonidan tugatiladi.

>KIRILL va **>MEFODIY** – IX asr o‘rtalarida yunon alifbosi asosida slavyan yozuvini yaratib, g‘arbiy slavyanlar orasida xristianlikni keng targ‘ib etishgan. Ular yunon tilidagi diniy asarlarni keyinchalik «kirillitsa» deb nom olgan yozuv orqali slavyan tiliga tarjima qilishgan. Ushbu yozuv Bolgariyadagi Rus yerlariga tarqalgan.

>MORKO POLO – venetsiyalik savdagor va sayyoh. O‘zining “Marko Polo kitobi”da sayyoh 1271-1295-yillar davomida Uzoq Sharq va Xitoyda ko‘rgankechirganlarini tasvirlaydi.
Marko Polo 25 yil davom etgan sayohatining 17 yilini Xitoyni egallagan mo‘g‘ullar xoni Xubilay saroyida xizmatda o‘tkazib, yevropaliklardan birinchi bo‘lib bu sirli o‘lkalarni o‘z kitobida tavsiflaydi. Yevropaliklar faqat XIX asrdagina dengiz orqali o‘tib, XIII asrda Marko Polo sayohat qilgan o‘lkalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar. Marko Poloning kitobidagi Sharq mamlakatlarining afsonaviy boyliklari 200 yildan so‘ng genuyalik dengizchi Xristofor Kolumbda shunchalik katta taassurot qoldiradiki, u nima bo‘lganda ham Hindistonning boy sohillariga yetishga qaror qiladi.

>FRANCHESKO PETRARKA (1304-1374) – shoir, Ilk uyg‘onish va gumanizmning Yevropadagi dastlabki vakili. “Qo‘shiqlar kitobi” va “ She’riy maktublar” nomli she’riy to‘plamlarning muallifi.

>BOKACHCHO – Yevropada ilk uyg‘onish va gumanizm davrining namoyandasi. Franchesko Petrarkaning do‘sti va davomchisi.

>SALYUTATI – Yevropada ilk uyg‘onish va gumanizm davrining namoyandasi. Franchesko Petrarkaning (1304-1374-yillar) do‘sti va davomchisi.

Florensiyada yashab yuqori davlat lavozimida ishlagan.

Salyutati yuksak g‘oyali, o‘qimishli kishini tarbiyalashda ijtimoiy fanlar: filologiya, ritorika, tarix, pedagogika, etikaning o‘ta muhim ekanligini ta’kidlagan.

>RIM PAPALARI

Frank qiroli ko‘magida 756-yilda Italiyada Rim papalari davlati – Papa viloyati tashkil etilgan. Xristian cherkovi Rim imperiyasining G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘lingan paytida – 395-yilda amalda bo‘lingan edi. XI asr o‘rtalarida esa rasman rim-katolik va yunon-pravoslav cherkovlariga bo‘lingan. Rasman bo‘linishga sabab etib Sharqiy Yevropadagi bolgarlarni cho‘qintirishdagi raqobat ko‘rsatiladi.

>LEV III – 800-yilda Rim mahalliy zodagonlari papa Lev III ga qarshi isyon ko‘taradi. Karl bu isyonni qo‘shin yuborib bostirgan. Ushbu yordam evaziga papa Lev III 800-yilning dekabrida Karlga imperatorlik tojini kiydirgan.

>IOANN XII – 962-yilda o‘z qo‘shini bilan german qiroli Otton I Rimga bostirib kiradi. Ioann XII esa Otton I ga imperatorlik tojini kiydirishga majbur bo‘ladi.

>SILVESTR III – asl ismi Gerbert bo‘lib, shogirdi Otton III tufayli papalikka saylangan. U 999–1003-yillarda Rim papasi bo‘lgan.

>URBAN II – Salib yurishlari tashabbuskori. Bu papa 1095-yilda Fransiyaning janubidagi Klermon shahrida cherkov yig‘inida nutq so‘zlagan. U Quddusdagi «payg‘ambar qabrini» musulmonlardan ozod qilishga chaqirgan. Ushbu yurishda ishtirok etganlarning gunohlari kechirilishini, halok bo‘lganlarning ruhi jannatga tushishini va’da qiladi. «Falastinda sut va asal daryo bo‘lib oqadi, Quddus yerning kindigi, jannatmakon hosildor yerli o‘lka», deya ta’kidlagan.

>INNOKENTIY III – 1198–1216-yillarda hukmronlik qilgan bu papa davrida katolik cherkovi o‘z qudrati cho‘qqisiga erishgan. Innokentiy III ning bir iborasi bor: «Oy o‘z yog‘dusini Quyoshdan olganidek, qirol hokimiyati ham o‘z jilosini papalikdan oladi». Innokentiy III Germaniya, Fransiya, Angliya hukmdorlarini interdikt orqali tavba-tazarru qildirgan. Aholiga o‘z hukmini o‘tqazishda rohiblarga tayangan. Faoliyati davomida Germaniya siyosatiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. U deyarli barcha tomonidan unutilgan, Fridrix I Barbarossaning 18 yoshli nabirasi – Fridrix II ni 1212-yilda qirol deb e’lon qilgan. Innokentiy III XII asr oxirida to‘rtinchi salib yurishlarini tashkil etishga kirishgan. Natijada 1202–1204-yillarda to‘rtinchi salib yurishlari bo‘lib o‘tgan. Bundan tashqari u nemis feodallarining XIII asrning boshlarida Boltiqbo‘yida olib borgan urushlarini salib yurishlari deb e’lon qiladi. Bundan maqsad Boltiqbo‘yida yashovchi aholini katolik diniga o‘tkazish edi.

>GRIGORIY IX – bu papa 1227–1241-yillarda Papa viloyatini boshqargan. Uning davrida inkvizitsiya o‘z qudratining cho‘qqisiga erishgan.

>BONIFATSIY VIII – ushbu papa 1294–1303-yillarda hukmronlik qilgan. Uning hukmronligi davrida Fransiya qiroli Filipp IV cherkovdan soliq talab qiladi. Bu holat tarixda ilk bora sodir etilayotgan edi. Bonifatsiy VIII ruhoniylarga Fransiya qiroliga soliq to‘lashni man etgan. Filipp IV dan esa Flandriyaga qarshi urushni to‘xtatishini talab qiladi.

>PIY IX – 1870-yil 3-oktabr kuni Rim Italiya qirolligining poytaxtiga aylantirildi. Bungacha papa Piy IX Rim shahrining Italiyaga qo‘shilishiga qarshilik qilayotgan va uni Fransiya armiyasi himoya qilayotgan edi.

>JANGLAR VA ULARNING IZOHLARI

1. Puate jangi – 732-yilda bo‘lgan. Franklar hukmdori Karl Martell arablarni yengib, ularning Yevropaga yurishlariga chek qo‘yadi.
2. Bavariyaning Lex daryosi bo‘yidagi jang – 955-yilda bo‘lgan. Otton I vengerlarni mag‘lubiyatga uchratgan.
3. Gastings jangi – 1066-yilda Normandiya gersogi Vilgelm I Angliya qiroli Garold ustidan g‘alaba qozongan.
4. Mansikert jangi – 1071-yilda bo‘lgan. Saljuqiylar sultoni Alp Arslon Vizantiya imperatori Roman IV Diogen ustidan g‘alaba qozongan.
5. Lenyano jangi – 1176-yilda bo‘lgan. Milan boshchiligidagi Liga qo‘shini Germaniya imperatori Fridrix I Barbarossa ustidan g‘alaba qozongan.
6. Kalka daryosi bo‘yidagi jang – 1223-yilda Dashti Qipchoqda bo‘lgan. Mo‘g‘ullar ruslar va qipchoqlar ustidan g‘alaba qozongan.
7. Neva daryosi bo‘yidagi jang – 1240-yil 15-iyulda bo‘lgan. Aleksandr Yaroslavich shvedlar ustidan g‘alaba qozongan.
8. Muz ustidagi jang – 1242-yil 5-aprelda Chud ko‘li ustida bo‘lgan. Unda Aleksandr Nevskiy nemislar ustidan g‘alaba qozongan.
9. Kresi jangi – Yuz yillik urushdagi janglardan biri. 1346-yilda sodir bo‘lgan. Inglizlar fransuzlar ustidan g‘alaba qozongan.
10. Puate jangi – Yuz yillik urushdagi janglardan biri. 1356-yilda sodir bo‘lgan. Ikki baravar ko‘p bo‘lgan fransuz qo‘shini inglizlarga mag‘lub bo‘lgan. Fransiya qiroli Ioann Saxiy va o‘g‘li Filipp ingliz qiroli Eduardga asirga tushadi.
11. Voje daryosi bo‘yidagi jang – 1378-yilda sodir bo‘lgan. Moskva knyazi Dmitriy Ivanovich mo‘g‘ullar ustidan dastlabki g‘alabaga erishadi.
12. Kulikovo jangi – 1380-yilda bo‘lib o‘tgan. Moskva knyazi Dmitriy Ivanovich Don daryosi sohilidagi Kulikovo maydonida Oltin O‘rda tumanboshisi Mamay ustidan g‘alaba qozongan.
13. Qunduzcha jangi – 1391-yilda sodir bo‘lgan. Sohibqiron Amir Temur Oltin O‘rda ustidan g‘alaba qozongan.
14. Tarak daryosi bo‘yidagi jang – 1395-yilda Shimoli Kavkazdagi Tarak daryosi bo‘yida bo‘lib o‘tgan. Amir Temur Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon ustidan g‘alaba qozongan.
15. Anqara jangi – 1402-yil 20-iyul sanasida Anqara yaqinidagi Chubuk mavzeyida sodir bo‘lgan. Amir Temur Turkiya hukmdori Sulton Boyazid ustidan g‘alaba qozongan.

16. Azenkur jangi – Yuz yillik urushdagi janglardan biri. 1415-yil kuzda sodir bo‘lgan. Fransuzlar inglizlarga mag‘lub bo‘lgan. Fransiyaning yarmi Angliyaga o‘tib ketadi.

17. Kompen qal’asi uchun jang – Yuz yillik urushdagi janglardan biri. 1430-yilda sodir bo‘lgan. Janna d’Ark burgundlar tomonidan asirga olinib, inglizlarga topshiriladi.

18. Bosvort yaqinidagi jang – Angliyada «Qizil va oq gullar urushi»dagi jang. 1485-yilda sodir bo‘lgan. Jang yakuniga ko‘ra Genrix VII Tyudor Angliya taxtiga o‘tiradi.

>TOMONLAR

- Xunnlar IV asrdan boshlab german qabilalariga ***Sharqdan*** hujum qilishgan
- Rim imperiyasining ***shimoli-sharqiy*** hududlari bo‘ylab joylashgan varvar qabilalari milodiy asr boshlarida urug‘chilik jamoasida yashagan
- Luara daryosidan ***shimoldagi*** qabilalar uzoq yillar urug‘ jamoa bo‘lib yashashgan;
- Frank qirolligi ***Shimoliy*** Galliyada vujudga kelgan;
- Britaniya orolining ***janubida*** kelt, brittlar, Britaniya orolining ***shimolida*** (Irlandiya va Shotlandiyada) skot, pikt qabilalari yashashgan
- Kelt qabila boshliqlari o‘zaro urushlarga kuch berganda ***shimoldan*** pikt va skot qabilalari hujumlari boshlangan
- Angl, saks, yut qabilalari ilk o‘rta asrlarda Germaniyaning ***shimoli*** va Yutlandiya yarimorolida yashashgan.
- Keltlar ko‘chib borgan Armorika Fransiyaning ***shimoli-g‘arbida*** joylashgan. Brittlarning ommaviy ko‘chishidan keyin bu hudud Bretan deb atalgan.
- Bosqinga uchramagan kelt qabilalari Irlandiya, Shotlandiya va Britaniyaning ***g‘arbida*** saqlanib qolgan
- 879-yilda Alfred va daniyalik vikinglar o‘rtasida sulh tuziladi. Bretan orolining ***janubi*** Alfredga, Bretan orolining ***shimoli*** daniyaliklarga berilgan.
- Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga Germaniya va Italiyaning ***shimoliy*** hududlari kirgan.
- Yustinian I Italiyaga qo‘shin yuboradi. Vestgotlar qo‘shinini yengib Ispaniyaning ***janubiy*** viloyatlari va Gibraltar bo‘g‘ozi ustidan nazorat o‘rnatiladi
- Slavyan qabilalari VI-VII asrlarda ***g‘arbda*** Elba daryosidan, ***sharqda*** Visla daryosigacha, ***shimolda*** Boltiq dengizidan ***janubda*** Dunay daryosiga qadar cho‘zilgan hududlarda yashashgan.
- Arabistonning ***janubi*** va ***g‘arbida*** aholi dehqonchilik bilan shug‘ullanib, xurmo bog‘lari va uzumzorlar barpo etishgan. Shu hududdan Vizantiyadan janubga, Afrikaga va Hindistonga boradigan karvon yo‘llari o‘tgan.
- Xalifalik qo‘shinlari VIII asr boshlarida ***Shimoliy*** Afrikani to‘liq bo‘ysundiradi.
- Mahmud G‘aznaviy XI asr boshlarida Hindiston ***shimoliga*** 17 marotaba bosqinchilik yurushi uyushtirgan.
- Hindistonning ***g‘arbida*** ko‘plab dengiz port shaharlar bo‘lgan.
- Tan sulolasiga asos solgan Li Yuan Xitoyning ***shimoli-g‘arbidagi*** mahalliy hokimlardan biri bo‘lgan.
- Ajanta ibodatxonalari majmuasi **Markaziy** Hindistonda joylashgan.
- Shampan grafligi Fransiyaning ***shimoli-sharqida*** joylashgan.

♦Fransiya markazlashtirilishidan avval qirolning domeni ***shimolda*** Parijdan–***janubda*** Orleanga qadar davom etgan.
♦Tuluza grafligi Fransiyaning ***janubida*** joylashgan.
♦Klermon shahri Fransiyaning ***janubida*** joylashgan.
♦Flandriya Fransiyaning ***shimolida*** joylashgan.
♦Avinon shahri Fransiyaning ***janubida*** joylashgan.
♦Akvitaniya Fransiyaning ***janubida*** joylashgan.
♦Lyudovik XI Karl Burgundkiyga qarshi kurashib, Burgundiyaning ***g‘arbiy*** qismini Fransiyaga qo‘shib oladi.
♦Fransiyaning ***janubidagi*** Provans viloyati va Marsel porti 1481-yil qirol hukmiga o‘tadi.
♦Koguryo IV-V asrlarda Koreya yarimorolining ***shimoliy*** qismi, Lyaodun yarimorolini egallagan yirik davlat bo‘lgan.
♦Koreya yarimorolining ***janubida*** III–IV asrlarda Pekche davlati vujudga kelgan.
♦Silla qirolligi Koreya yarimorolining ***janubi-sharqida*** joylashgan.
♦Van Gon o‘z oldiga Koguryo qirolligining ***shimoli-sharqiy*** Xitoyda yo‘qotgan hududlarni qaytarib olish vazifasini qo‘ygan.
♦XI-XII asrlarda Hindistonning ***shimoliga*** turk va afg‘on qabilalari hujumlari va joylashuvi kuchaygan.
♦Alouddin Xiljiy kuchli qo‘shin bilan ***shimoldan*** mo‘g‘ullar hujumini qaytargan.
♦Asteklar Meksika hududiga ***shimoldan*** kelgan
♦Sahroi Kabirning ***janubida*** barbar va tuareg, **G‘arbiy** Afrikada fulbe, ***Sharqda*** masai, galla, sidamo, tigrelar yashagan
♦Afrikaning ***Sharqida*** qadim zamonlarda Nubiya va Aksum davlatlari tashkil topgan.
♦Gana va Malining ***shimoli-sharqida*** songailar yashaganlar.
♦Aksum Efiopiyaning ***shimolida*** joylashgan.
♦Aksum Arabistonning ***janubiy*** sohillari va Sharqiy Sudanni egallaydi. VII asrda Arab xalifaligi Arabistonning ***janubini*** tortib oladi.

>YERLAR

Benefitsiy – Franklar davlatida bo‘lgan. Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xlodvigning vorislari boshqaruvi davrida qirollar alohida xizmatlari evaziga jangchilar va yaqin hamkorlariga berilgan yirik yer-mulk. Bu so‘z lotin tilidan olingan. Senyorning o‘z vassaliga harbiy xizmati evaziga in’om etgan yer-mulki.
Allod – G‘arbiy Yevropa feodal jamiyatida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadigan yer-mulk. Bu so‘z yunon tilidan olingan. VI asr oxiridan franklarning chek yeri allodga aylanadi.
Feod – ma’lum xizmat evaziga qirol tomonidan berilgan va meros bo‘lib qoladigan yer-mulk feod deyilgan. Lotin tilidan olingan. Franklarda hukmdorlar tomonidan ot, qurol-aslahasini tartibda saqlashi, urushlar paytida oilasini ta’minlashi uchun ritsarlarga in’om etilgan yer-mulk.
Grass – Ilk o‘rta Hindistonda in’om etilgan yer maydoni. Tarjimasi «bo‘lak» yoki «qultum». Bunday yerni olgan shaxs harbiy xizmat o‘tab berishi kerak bo‘lgan.

Patta – ilk o‘rta asrlarda Hindistonda rojalar tomonidan o‘z xonadoniga mansub bo‘lmagan amaldorlarga ma’lum muddatga foydalanishga berilgan yer. Tarjimasi «yorliq» yoki «yorliqqa olingan yer». Pattadan alohida xizmat ko‘rsatgan kishilarni taqdirlash uchun foydalanishgan. Mulkchilik munosabatlari mustahkamlanib borishi bilan bunday yerlar ham avloddan-avlodga o‘tadigan merosiy mulkka aylana boshlangan.
Mu – Xitoyda 1 mu 6 sotixga teng bo‘lgan yer. 624-yildagi qonunga ko‘ra, har bir xo‘jalik 80 mugacha haydaladigan yerni ijaraga olish huquqiga ega bo‘lgan. Bunday yerlarni sotish taqiqlagan.
Domen – lotin tilidan «mulk» deb tarjima qilinadi. Fransiyada qirol, gersog, graf va baronlarning qaram dehqonlar mehnati bilan ishlanadigan yer-mulklari.
Iqto – Saljuqiylar davlatida davlat yerlarining katta qismi iqto tarzida harbiylar va amaldorlarga xizmatlari evaziga in’om etilgan. Saljuqiylarda iqto dastlab merosiy mulk bo‘lmasdan, faqat xizmat muddati davomida foydalanish sharti bilan berilgan. Dehli sultonligida yer egaligining asosiy turi iqto deyilgan.
Tumori – Usmonli davlatida suvoriyga berilgan yer. Bunday yerlar faqat turklarga va harbiylarga xizmatda bo‘lgan paytda taqdim etilgan.
Syoyen – Yaponiyada XI – XII asrlarda vujudga kelgan yer. Bunday yerlar merosiy bo‘lib, barcha soliqlardan ozod etilgan.
Xolisa – Dehli sultonligida davlat ixtiyoridagi yer. Bunday yerlardan olinadigan soliqlar xazinaga tushib, davlat xarajatlari va maxsus qo‘shinni ta’minlash uchun ishlatilgan.

>POYTAXTLAR

- **Rim** – G‘arbiy Rim imperiyasining poytaxti;
- **Konstantinopol** – Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya) ning poytaxti;
- **Ravenna** – Vizantiyaning Italiyadagi noibligining poytaxti;
- **Itil** – Xazar xoqonligining poytaxti;
- **Makka** – Hijoz viloyatining markazi;
- **Pataliputra** – Guptalar davlatining poytaxti;
- **Kioto** – Yaponiya poytaxti;
- **Samarqand** – Amir Temur saltanati poytaxti;
- **Reyms** – Shampan grafligi markazi;
- **London** – Angliya poytaxti;
- **Saroy Botu** – Oltin O‘rda xonligining dastlabki poytaxti;
- **Istanbul** – Usmonli davlati poytaxti;
- **Qoraqurum** – Chingizxon davlatining poytaxti;
- **Sonak** – Koryo qirolligining poytaxti;
- **Kegyon** – Choson qirolligining poytaxti;
- **Xanson** – Choson qirolligining poytaxti;
- **Dehli** – Dehli sultonligining poytaxti;
- **Tenochtitlan** – Asteklar davlatining poytaxti;
- **Kusko** – Inklar davlatining poytaxti;
- **Niara** – Mali davlatining poytaxti;
- **Gao** – Songai davlati poytaxti;
- **Chichen-Itsa** – Mayyalar davlatining poytaxti.

7-SINF “JAHON TARIXI” DARSLIGIDA ISMLARI QAYD ETILGAN TARIXIY SHAXSLAR BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

-A-
Abdulloh
Abdulmutallib
Abu Bakr
Abu Bakr
Abu Bakr ar-Roziy
Abu Muslim
Abu Tolib
Aleksandr Nevskiy
Aleksey I
Ali
Alkuin
Al-Ma’sudiy
Almi
Alouddin Xiljiy
Alp Arslon
Amir Temur
Amvrosiy Avrelian
Anna
Asparux

-B-
Bahlul Lo‘diy
Berkaxon
Bobak
Bokachcho
Boleslav Jasur
Bonifatsiy VIII
Botuxon
Boyazid Yildirim
Buyuk Alfred
Buyuk Karl

-D-
Dmitriy Ivanovich Dyugeklan

-E-
Eduard
Eduard III
Egidiy
Evliya Chalabiy
Eyngard

-F-
Feodora
Feodosiy
Feruzshoh Tug‘luq
Filipp
Filipp II
Filipp IV
Franchesko Petrarka
Fridrix I Barbarossa
Fridrix II

-G-
Garold
Genrix I
Genrix II
Genrix VII Tyudor
Gilom Kal
Grigoriy IX

-H-
Horun ar-Rashid

-I-
Ibn Battuta
Ibn Dast
Ibn Fadlan
Ibn Sino
Ibrohim Lo‘diy
Igor
Innokentiy III
Ioann Saxiy
Ioann XII
Ioann Yersiz
Iogann Guttenberg
Isaak II Angel
Iso Masih
Ivan III
Ivan Kalita

-J-
Janna d’Ark
Jo‘ji
Jon Bol
Jonibek

-K-
Karl Martel
Karl V Dono
Karl VII
Karl VIII
Kolyuchcho Salyutati
Kirill

-L-
Lev III
Li Son Ge
Li Yuan
Lyudovik IX
Lyudovik VI
Lyudovik XI

-M-
Mahmud
Mahmud G‘aznaviy
Mamay
Manelik
Mavrikiy
Mefodiy
Mehri xotun
Meshko I
Mexmet II
Minamoto
Mixail VIII
Paleolog
Morko Polo
Muhammad (s.a.v.)
Muhammad Tug‘luq
Muhammad Xorazmiy
Mulla Mahmud
Muqanna
Muso I

-O-
Odoakr*
Oleg
Olga
Omina
O‘qtoy
O‘rxon
Otton I
Otton III
O‘zbekxon

-P-
Piast
Piri Rais
Platon*

-Q-
Qutbiddin Oyboq

-R-
Richard I Sheryurak
Richard II
Rober de Sarbon

Rojer Bekon
Roland
Roman IV Diogen
Romul Avgustul*
Rudolf Gabsburg
Ryurik

-S-

Saljuqbek
Salohiddin Ayubiy
Sechjon Buyuk
Shamsiddin Eltutmish
Silvestr III
Simeon
Sineus
Subutoy Bahodir
Sulaymon
Sundiata Keyt
Svyatopolk
Svyatoslav
Syuan Szyan

-T-

Tangun
Tatsit
To‘g‘rulbek
Toriq ibn Said
To‘xtamishxon
Truvor
Tuli

-U-

Ulug‘bek
Umar
Uot Tayler
Urban II
Usmon
Usmon I

-V-

Van Gon
Van In
Vatslav
Velisariy
Vilgelm I
Vladimir
Vladimir Monamax
Vsevolod Mstislavich

-X-

Xilperik
Xlodvig
Xoja Sinon
Xoja Xalifa
Xristofor Kolumb
Xubilay
Xuloku
Xusrav I

-Y-

Yaroslav
Yaroslav Donishmand
Yuliy Sezar
Yuriy Dolgorukiy
Yustin
Yustinian I

-Z-

Ziryab

-SH-

Shoh Lalibeli

-CH-

Chandragupta I
Chig‘atoy
Chingizxon
Chjan Xe
Chju Yuan Chjan

Kulrang bilan alohida ajratilgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar qo‘llanmada berilmagan. Bu shaxslar haqida ma’lumotlar esingizdan chiqqan bo‘lsa, darhol kitobdan o‘qib oling!

IZOH VA QAYDLAR UCHUN

Ish quroling soz bo‘lsa,
mashaqqating oz bo‘lur.



JALOL BOLTAYEV
97 299 00 66
@TESTLIDER



TAQRIZLANGAN, MUKAMMAL TEST TO‘PLAMLARI

EXE (KOMPYUTER) TESTLAR

OPTIMAL QO‘LLANMALAR

Mashqda qanchalik qiyin bo‘lsa,
jangda shunchalik oson bo‘ladi.




GEOGRAFIYA VA TARIX
FANLARIDAN KAFOLATLANGAN
(HUJJAT BILAN) O‘QUV KURSI

HAR DARSLIK BO‘YICHA:

- ✓ OPTIMAL SAVOL-JAVOBLAR
- ✓ MAVZULASHTIRILGAN TESTLAR
- ✓ EXE (KOMPYUTER) TESTLAR (HAR DARSLIKDAN: 3000+)
- ✓ BOBLASHTIRILGAN «MAXSUS» TESTLAR
- ✓ QULAY QO‘LLANMALAR
- ✓ XARITALARNI O‘RGANISH UCHUN MAXSUS DASTURLAR
- ✓ AMALIY MASALALAR UCHUN VIDEODARSLAR

KURS DASTURI PROGRESSIV USLUBGA ASOSLANGAN. YA’NI “NOL”DAN “YUZ”GA QARAB BORILADI.



O‘quv kurslarimizga ro‘yxatdan o‘tish uchun:

- **Repetitorlar:** Jalol Boltayev, Sherzod Ro‘zmetov
- **Telefon:** (97) 299-00-66
- **Manzil:** Xorazm v. Urganch sh., «Arastu» o‘quv markazi
- **Mo‘ljal:** UrDU ro‘parasi, “Adidas” do‘koni yonida